

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

SHIRINOV S.E.

“SOLIQ STATISTIKASI VA PROGNOZI”
(amaliy mashg‘ulotlar)

Uslubiy qo‘llanma

TOSHKENT – 2017

Shirinov S.E. “Soliq statistikasi va prognozi” Uslubiy qo‘llanma (amaliy mashg‘ulot o‘tish uchun), 2017. – 121b.

Uslubiy qo‘llanma davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiq tayyorlangan bo‘lib, u «Soliq statistikasi va prognozi» fani mavzulari bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar, nazorat savollari, mustaqil ish mavzulari, mavzu bo‘yicha amaliy mashg‘ulot o‘tish borasida bakalavriatning 5230800- “Soliqlar va soliqqa tortish” ta’lim yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan.

Uslubiy qo‘llanma Toshkent Moliya institute O‘quv-uslubiy Kengashi yig‘ilishida muhokama qilinib, nashirga tavsiya etilgan 20.01.2017. qaror № 6/10.

Taqrizchilar: **Jo‘rayev A.S.**, i.f.d. – TMI. Soliqlar va soliqqa tortish kafedrası mudiri, professor;

To‘xliyev B.K., i.f.n. – Soliq akademiyasi prorektori, dotsent.

Kirish

«Soliq statistikasi va prognozi» fanidan amaliy mashgʻulot oʻtish boʻyicha tayyorlangan ushbu uslubiy qoʻllanma bakalavriatning soliqlar va soliqqa tortish yoʻnalishi uchun moʻljallangan. Mazkur qoʻllanma soliq statistikasi va prognozi tizimini oʻrganishda asos hisoblangan barcha mahalliy va xalqaro meʼyoriy hujjatlarga asoslangan holda yaratilgan.

Uslubiy qoʻllanma oʻn ikkita mavzudan iborat boʻlgan amaliy mashgʻulotlarni qamrab olgan boʻlib, har bir mavzu uchun tayanch soʻz va iboralar, nazorat savollaridan iborat maʼlumot mavjud. Bu, oʻz navbatida, amaliy mashgʻulot darslarini amaliy maʼlumotlar asosida, muhokama va munozaraga tayanib interfaol usullardan foydalangan tarzda tashkil etishga imkoniyat yaratadi.

Mazkur qoʻllanma orqali talabalar oʻz bilimini mustaqil nazorat qilishi va joriy nazoratdan oʻtkazishda foydalanilishlari mumkin. Shuningdek, amaliy mashgʻulotlar toʻplamidasoliq statistikasi va prognozi tizimiga oid namunalar va tegishli ilovalar keltirilgan. Bu, oʻz navbatida, talabalarga mamlakat soliq statistikasi va prognozi tizimi toʻgʻrisida mustaqil shaxsiy xulosasini chiqarishga amaliy yordam koʻrsatadi va bilimlarni mustahkamlaydi.

“Soliq statistikasi va prognozi” fanidan tayyorlangan ushbuy amaliy mashgʻulot oʻtish uchun uslubiy qoʻllanmada mavzularni mamlakatimiz soliq tizimiga qiyosiy tahlili nuqtai nazaridan iqtisodiy hayot bilan hamohang holdagi ketma ketlikda keltirilgan va belgilangan meʼyoriy talablarga amal qilingan holatda tuzilgan. Uslubiy qoʻllanma soliq statistikasi va prognozi tizimining amaliy va nazariy asoslarini kompleks tarzda yoritib beradi. Amaliy mashgʻulot oʻtish uchun uslubiy qoʻllanmada soliq statistikasi va prognozining asosi, xususiyatlari, davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga taʼsiri koʻrib chiqilgan. Qoʻllanma iqtisodiy yoʻnalishdagi oliy oʻquv yurtlarida taʼlim olayotgan 5230800 – “Soliqlar va soliqqa tortish” taʼlim yoʻnalishi talabalariga moʻljallangan.

1. «Soliq statistikasi va prognozi» fanidan amaliy mashg'ulot o'tishning sillabus strukturasi

Fanning qisqacha tavsifi

Fanni o'qitishdan maqsad talabalarda O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida soliq to'lovchilarni soliq organlarida hisobga olish, ularning hisobini olib, borish, soliqlar va xo'jalik yurituvchi subyektlar bo'yicha shaxsiy kartochkalarini yuritish, soliq organlarida soliq statistikasini yuritish va ular asosida tuziladigan hisobotlar, soliq tushumlarini tahlili va tahlil ma'lumotlari asosida soliqlarni prognoz qilish bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdir.

Fanning vazifasi talabalarga Davlat soliq organlarida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushumini hisobga olish va hisobotlar tuzish, ma'lumotlarni jamlash, tahlil qilish, xulosa va takliflar ishlab chiqish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha tushumlarni prognoz qilish usullarini o'rgatishdan iborat.

Ushbu fanni o'qitishda aqliy hujum, zigzag, klaster, insert usullaridan foydalaniladi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida bu fanni o'qitish davomida turli xil materiallardan, xorijiy adabiyotlardan foydalanish bilan bir qatorda diaprektorlar va kompyuter diaprektorlari yordamida mavzular bo'yicha slaydlarni namoyish etish orqali ma'ruzalar olib borish, xalqaro Internet tarmog'idan foydalanish kabi informatsion texnik vositalardan foydalaniladi.

Amaliy mashg'ulot mavzulari va unga ajratilgan soatlar taqsimoti

№	Mavzular	Amaliy (seminar)
	“Soliq statistikasi va prognozi” fanining predmeti va bilish usullari	2
	Soliqlarni hisoblashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar va ularning iqtisodiy ahamiyati	2
	Soliq elementlarining soliqlarni prognoziga ta'siri	2
	Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha tushumlarni prognoz qilish tartibi va usullari	4

	Soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatini bajarish tartibi va soliq qarzini majburiy undirishni tashkil etish	2
	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognoz qilish tartibi	4
	Qo'shilgan qiymat solig'i prognozini tashkil qilish	4
	Aksiz solig'ini prognoz qilish tartibi	2
	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilish tartibi	4
	Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlarini prognoz qilish tartiblari	4
	Soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibidagi soliqlarni prognoz qilish	2
	Byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga majburiy to'lovlarni prognoz qilish tartibi	4
Jami:		36

1-mavzu. “Soliq statistikasi va prognozi” fanining predmeti va bilish usullari

Mazkur mavzuda “Soliq statistikasi va prognozi” fanining maqsadi va vazifalari, Soliq statistikasi, soliq tushumlari hisobi, tahlili va soliqlarni prognozlash tushunchalari bayon qilingan.

2-mavzu. Soliqlarni hisoblashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar va ularning iqtisodiy ahamiyati

Mazkur mavzuda soliq hisob-kitoblari yuritilishining o'ziga xos xususiyatlari va ularning mohiyati, soliqlarni hisoblash va byudjetga o'tkazish tartibi. soliqlarni hisoblash usullari, soliqlarni hisoblashda foydalanadigan ko'rsatkichlar bayon qilingan.

3-mavzu. Soliq elementlarining soliqlar prognoziga ta'siri

Mazkur mavzuda soliq elementlari tarkibi va ularni prognozlashdagi ahamiyati, yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bazasini aniqlash tartibi, soliq tushumlarini

tahlil qilish, vertikal, gorizontal va omiliy tahlil, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'siri bayon qilingan.

4-mavzu. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha tushumlarni prognoz qilish tartibi va usullari

Mazkur mavzuda O'zbekistonda iqtisodiyotni erkinlashtirish va diversifikatsiyalash sharoitida davlat byudjetining daromad qismini prognozlashtirishning mohiyati, rognozlashtirishni tashkil qilish, Davlat byudjeti daromadlar qismi loyihasini tuzish tartibi bayon qilingan.

5-mavzu. Soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatini bajarish tartibi va soliq qarzini majburiy undirishni tashkil etish

Mazkur mavzuda soliq majburiyatini bajarishning umumiy qoidalari, soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni aniqlash hamda ularning hisobini yuritish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning ortiqcha to'langan summalarini hisobga olish hamda qaytarib berish bayon qilingan.

6-mavzu. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognoz qilish tartibi

Mazkur mavzuda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i byudjetning daromad qismini shakllantirishdagi o'rni, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchilarning sonini o'zgarishi bilan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i tushumlarini o'zgarishning bog'liqligi, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognoz qilish usullari bayon qilingan.

7-mavzu. Qo'shilgan qiymat solig'i prognozini tashkil qilish

Mazkur mavzuda qo'shilgan qiymat solig'ini prognoz qilish usullari, soliq prognozini tashkil qilish va kerak bo'lgan ma'lumotlarni jamlash, operativ prognozlashtirish maqsadi, qo'shilgan qiymat solig'i oborotini aniqlash va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili asosida prognozlashtirish bayon qilingan.

8-mavzu Aksiz solig'ini prognoz qilish tartibi

Mazkur mavzuda aksiz solig'ini prognozashtirishning mohiyati, aksiz solig'ini prognoz qilish usullari, soliq prognozini tashkil qilish va kerak bo'lgan ma'lumotlarni jamlash. aksiz solig'ini prognozashtirishda foydalanadigan ma'lumotlar, xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliq va debitorlik qarzlari bayon qilingan.

9-mavzu. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilish

Mazkur mavzuda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i-ni prognoz qilishning mohiyati, soliq to'lovchilari va ularning sonining o'zgarishi, soliq tushumlari hajmining o'zgarishiga ta'siri, jismoniy shaxslarning daromad solig'ini prognozashtirishda foydalanadigan ma'lumotlar bayon qilingan.

10-mavzu. Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlarini prognoz qilish tartiblari

Mazkur mavzuda mol-mulk solig'i va uni prognozlash uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar, yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliqni prognoz qilishda soliqning yalpi bazasini aniqlash tartibi, jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliqni prognoz qilishda soliqning yalpi bazasini aniqlash tartibi, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini prognoz qilish tartibi bayon qilingan.

11-mavzu. Soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibidagi soliqlarni prognoz qilish

Mazkur mavzuda yagona soliq to'lovi to'lovchilari va ularning soni o'zgarishining byudjet tushumlariga ko'rsatgan ta'siri, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni prognoz qilishning mohiyati, yagona yer solig'ini o'ziga xos xususiyati, uni prognoz qilish mohiyati, yagona yer solig'ini prognoz qilish usullari, prognozni tashkil qilish va zaruriy ma'lumotlarni jamlash tartibi bayon qilingan.

12-mavzu. Byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga

majburiy to'lovlarni prognoz qilish

Mazkur mavzuda byudjetning nosoliq daromadlari tarkibi va ularning tahlili, budjetga boshqa tushumlarni tahlil qilish va prognozlash tartibi, byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga tushumlar tahlili va prognozi, Respublika Yo'l jamg'armasiga tushumlar tahlili va prognozi banyon qilingan.

Auditoriyadagi siyosat va etik qoidalar

Auditoriyadagi siyosat amaldagi me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablar doirasida tashkil etiladi. Shuningdek, talabalar uchun quyidagi talablar mavjud:

- o'qituvchiga va guruhdoshlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish;
- institut ichki tartib - intizom qoidalariga rioya qilish;
- uyali telefonni dars davomida o'chirish;
- berilgan uy vazifasi va mustaqil ish topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish;
- ko'chirmachilik (plagiat) qat'iyan man etiladi;
- darslarga qatnashish majburiy hisoblanadi, dars qoldirilgan holatda qoldirilgan darslar qayta o'zlashtirilishi shart;
- darslarga oldindan tayyorlanib kelish va faol ishtirok etish;
- talaba o'qituvchidan so'ng, dars xonasiga - mashg'ulotga kiritilmaydi;
- talaba reyting ballidan norozi bo'lsa e'lon qilingan vaqtdan boshlab 1 kun mobaynida apellyatsiya komissiyasiga murojat qilishi mumkin.

Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi quyidagicha amalga oshiriladi: professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina institut hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochtani ochish vaqti soat 15.00 dan 19.00 gacha.

2. «Soliq statistikasi va prognozi»fanidan seminar mashgʻulotlarini interfaol shaklda olib borish haqida uslubiy koʻrsatmalar

Mashgʻulotlarni zamonaviy tarzda olib borish usullaridan biri interfaol shaklda olib borish sanaladi. Interfaol taʼlim bu eng avvalo hamkorlikdagi mehnatga asoslangan taʼlim hisoblanadi. Bu yerda, taʼlim jarayonining barcha ishtirokchilari (oʻqituvchi, talabalar) bir-birlari bilan oʻzaro axborot almashish, masalalarni hamkorlikda yyechish va vaziyatli masalalarni tuzish hamda yyechish kabi bir qator holatlarda juda yaqin va uzviy hamkorlikda ish olib boradilar. Yuqorida sanab oʻtilgan vaziyatlarning barchasi avvalo hamfikrlik, ochiqkoʻngillik va oʻzaro bir-birini qoʻllab-quvvatlash muhitida oʻtganligidan nafaqat yangi bilimlarga ega boʻlishga balki, dunyoqarashning yanada kengayib, rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Interfaol taʼlim bu taʼlim faoliyatini tashkil etishning maxsus shakli hisoblanadi. U juda aniq va istiqbolli boʻlgan quyidagi maqsadlarni oʻz oldiga qoʻyadi:

- oʻquv jarayonining samaradorligini oshirish, yuqori natijalarga erishish;
- fanni oʻzlashtirishga boʻlgan qiziqishni oshirish;
- oʻquvchilarda professional bilim va koʻnikmalarni shakllantirish va rivojlantirish;
- ilgʻor va taraqqiy etuvchi bilimlarni shakllantirish;
- professional kasbiy tahlil va sezuvchanlikka oid bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish;
- axborotlarni qayta ishlovchi va qabul qiluvchi zamonaviy texnika vositalari hamda texnologiyalardan foydalanish borasidagi bilimlarni rivojlantirish;
- kerakli axborotlarni mustaqil topish va ularning ishonchliligini aniqlash borasidagi bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish;
- talabalarning auditoriyadagi ishlari hajmini kamaytirib, mustaqil ishlarining salmogʻini oshirish.

Interfaol taʼlim bir vaqtning oʻzida bir qancha masalalarni yechishga imkon beradi, ularning eng asosiysi ilgʻor va taraqqiy etuvchi bilim va koʻnikmalarni shakllantirish hisoblanadi. Taʼlimning bu shakli talabalar oʻrtasidagi emotsional muloqotlarning oʻrnatilishi hamda ularning samaradorligi oshishini taʼminlaydi, guruhlarda birgalikda ishlashning

tashkil etilishi barobarida o'z o'rtoqlarining fikrlariga e'tibor qaratib, hurmat qilishga oid ko'nikmalarning hosil qilinishi, yuqori darajadagi asoslanishga erishish, bilimlarning mustahkamlanishi, ijodiy va fantazyali qarashlar, vaziyatga xolis baho bera olish, faol hayotiy pozitsiyaga ega bo'lish, o'zini va o'z fikrini hurmat qilish, o'zini namoyon qilish erkinligi, faoliyatga yo'naltirilganlik, o'zaro hurmat va demokratik yondashuvlar oqibatida tarbiya masalasining ijobiy yyyechimi ta'minlanadi. Amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, ta'lim jarayonida interfaol o'qitish shakllaridan foydalanish o'quvchilarga tushadigan asabiy yukni kamaytirib ular faoliyatining shaklini o'zgartirish barobarida mashg'ulotda ko'rilayotgan asosiy savollarga diqqat- e'tiborni jalb qilishga ko'maklashadi. «Soliq statistikasi va prognozi» fanidan interfaol tarzda dars o'tish shakllari sifatida davra suhbatlari va munozaralar ko'rib o'tiladi.

Davra suhbatlari – talabalar o'rganishi faoliyatining shakllaridan biri bo'lib, uning yordamida olingan bilimlar mustahkamlanadi, mavjud yoki yetishmayotgan axborotlar yangilari bilan to'ldiriladi, masalalarni yechish qobiliyatlari shakllantiriladi, o'z nuqtai nazariga bo'lgan ishonch ortadi hamda munozaralarga kirishish madaniyati hosil qilinadi. Mavzu munozarasi bilan guruh maslahatlarining uyg'unlashgan tarzda olib borilishi "davra suhbatlari"ning o'ziga xos jihati hisoblanadi. Bu usul quyidagi belgilari bilan ajralib turadi:

- muhokamaning maqsadi – muhokama qilinayotgan muammoga tegishli g'oya va fikrlarni umumlashtirish;
- davra suhbatining barcha ishtirokchilari boshqalarning masalaga oid bildirgan fikrlarini emas, balki muhokama mavzusiga doir o'z fikrlarini bayon qilishlari talab etiladi;
- muhokamada ishtirok etayotgan hamma qatnashchilar teng huquqli hisoblanishadi;
- hech kim o'zini va fikrini boshqalarnikidan ustun qo'ya olmaydi.

Davra suhbatini o'tkazishdan asosiy maqsad, talabalarda mustaqil malaka fikrlarini bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirish, o'z qarashlarini dalillar bilan isbotlash, taklif qilinayotgan yyechimlarini asoslash va o'z qarashlarini himoya qilishga o'rgatish hisoblanadi. Natijada qabul qilingan axborot va mustaqil ishlar qo'shimcha materiallar yordamida mustahkamlanadi, shuning bilan birga, muhokama qilish uchun yangi muammo va savollar aniqlab olinadi.

Davra suhbatini tashkil qilishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-munozaralar davomida mavzuga oid bo'lgan bir-ikkita muammoli vaziyatni muhokama qilish;

-turli ko'rgazmali qurollar(chizma, diagramma, grafik, audio va video yozuvlar, foto yoki videoli hujjatlar)dan foydalangan holda o'z fikr-mulohazalarini bayon qilish;

-asosiy ishtirokchi va so'zga chiquvchilarni jiddiy tayyorlash (faqatgina doklad, tushuntirishlar bilan chegaralanmasdan, o'z fikr-mulohazalarini bayon etish hamda aniq isbot va dalillar keltirish).

Munozara bir yoki undan ortiq talabalar ishtirokida o'zaro fikr almashishlari ko'rinishida olib boriladigan aniq savolni maqsadli muhokama qilish hisoblanadi. Munozaraning asosiy maqsadi – savolni tushunishdagi o'ziga xos farqlarni aniqlab, o'zaro bahslar yordamida haqiqiy javobni topishdir.

Munozaralardan muammoli o'quv anjumanlarini va simpoziumlarni tashkil etishda, shuningdek, fanlararo kompleks xususiyatga ega bo'lgan muammolarni muhokama qilishda foydalanish ham mumkin. Keltiriladigan ma'ruza va xabarlarning mazmuni o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq bo'ladi, ammo ba'zan belgilangan dasturdan chiqib ketishi yoki professional sohasi bo'yicha yo'naltirilgan bo'lishi ham mumkin.

Munozara pedagogikaning elementlaridan hisoblangan "o'qituvchi-o'quvchi" va "o'quvchi - o'quvchi" ko'rinishidagi hamkorlikdan foydalanish imkonini tug'dirib, unda o'quvchi va o'qituvchi qarashlari o'rtasidagi mavjud qarama-qarshiliklar yo'qolib, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining qarashlari doirasi umumlashgan tarzda hammaga tushunarli umumfoydalanishli holatga keladi.

«Soliq statistikasi va prognozi» fanidan amaliy mashg'ulotlarda davra suhbat, munozaralarni o'tkazishning umumiy tuzilishi quyidagicha bo'ladi.

Pedagog-o'qituvchi mavzuni, munozarali vaziyatni tanlaydi, tushunchalar ko'lami belgilab olinadi(barcha ibora va tushunchalar hamma ishtirokchilarga bir xilda tushunarli bo'lishi kerak), mazkur guruhda belgilangan mavzuni o'rganish uchun eng maqbul hisoblangan interfaol mashg'ulotning aniq shakli tanlanadi.

Davra suhbat va munozaralarning mavzulari ishchi o'quv dasturida keltirilgan va quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

Amaliy mashg'ulotda davra suhbatlari va munozaralarning mavzulari

Tr	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Davra suhbatlari mavzusi (guruhdagi muhitga ko'ra tanlanadi)	Munozara mavzusi (guruhdagi muhitga ko'ra tanlanadi)
1	"Soliq statistikasi va prognozi" fanining predmeti va bilish usullari		
2	Soliqlarni hisoblashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar va ularning iqtisodiy ahamiyati		
3	Soliq elementlarining soliqlar prognoziga ta'siri		
4	Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha tushumlarni prognoz qilish tartibi va usullari		
5	Soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatini bajarish tartibi va soliq qarzini majburiy undirishni tashkil etish		
6	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognoz qilish tartibi		
7	Qo'shilgan qiymat solig'i prognozini tashkil qilish		
8	Aksiz solig'ini prognoz qilish tartibi		
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilish		
10	Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlarini prognoz qilish tartiblari		
11	Soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibidagi soliqlarni prognoz qilish		
12	Byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga majburiy to'lovlarni prognoz qilish		

3. «Soliq statistikasi va prognozi» fanidan seminar mashgʻulotlarini mavzular yuzasidan olib borish haqida uslubiy koʻrsatmalar

3.1. “Soliq statistikasi va prognozi” fanining predmeti va bilish usullari

Reja

1. “Soliq statistikasi va prognozi” fanining oʻrganish predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Prognozlash va rejalashtirish haqida tushuncha, ularning oʻziga xos xususiyatlari va umumiy jihatlari.
3. Soliqlarni prognoz qilishning zarurligi va mohiyati.
4. Xalqaro valyuta fondi amaliyotida soliq tushumlarini prognoz qilish amaliyoti.

CASE-STUDY-1

Soliq idorasida kutilayotgan soliq tushumlari miqdori oʻrganilmoqda. Kutilayotgan soliq tushumlari miqdorini oʻrganish uchun oʻrganuvchiga maʼlumot manbasi hamda soliq tushumlarini prognozlash uchun zarur boʻlgan usulni tanlash talab qiladi. Maʼlumotning haqqoniylik darajasiga tahlil xulosasining ilmiy asoslanganligi bogʻliq. Maʼlumotning birinchi manbasi soliq idorasining maʼlumot bazasi hisoblanadi.

Muammo

Maʼlumotning haqqoniyligini aniqlash hamda qoʻllanuvchi usulning samaraligiga baho berish.

Topshiriq

Maʼlumot manbasini haqqoniyligiga oʻz munosabatingizni bildiring: maʼlumoni yigʻishda mavjud boʻlgan muammolarni aniqlang; oʻrganish usulining samaradorligiga baho bering; usulni qoʻllash shartlarini keltiring. Maslahatlar va tavsiyalar bering.

1. Muammoni toʻliq tassavvur qilish maqsadida keltirilgan barcha maʼlumotlarni eʼtibor bilan oʻqib chiqing. Oʻqish vaqida muammoni birdaniga tahlil qilishga harakat qilmang.

2. Maʼlumoni yana qayta oʻqib chiqing. Sizga muhim koʻringan xat-

boshilarni ajratib oling.

3. Mavjud muammoga baho berishga harakat qiling. Muammoning mohiyatini hamda ikkinchi darajaga ega bo'lgan muammo turlarini aniqlang. Asosiy va qo'shimcha yuzaga keluvchi muammolar to'g'risidagi xulosani yozma ravishda bayon qiling.

4. Muammoga a'loqador barcha faktlarni aniqlang va keltirilgan ma'lumotlar o'rtasidagi o'zaro a'loqadorlikka baho bering.

5. Taklif qilingan qarorning asosliligini aniqlash mezonlarini shakllantiring.

6. Qarorning muqobil variantlarini belgilashga harakat qiling. Ularning ichida muammoning yechimiga eng yaqinini tanlang.

7. Qarorni realizatsiya qilish bilan bog'liq amaliy chora-tadbirlar ro'yxatini ishlab chiqing.

CASE-STUDY -2

“Soliq statistikasi va prognozi” fani soliq to'lovchi va soliq idoralari, soliq tushumlarini prognozlashda ishtirok etuvchi davlat mutasaddi idoralari o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlarni o'rganadi. Soliq idorasi xodimlari soliq tushumlarini hisobini yuritadi, ma'lumotlarni qayta ishlaydi va soliq tushumlarini prognoz qiladi.

Soliq tushumlari bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va prognozlashda qanday usullardan foydalaniladi?

CASE-STUDY -3

“Soliq statistikasi va prognozi” fanining ayrim usullari iqtisodiyotning boshqa tarmolarini o'rganishda qo'llaniladi. Masalan, ehtimollar nazariyasi usullari bilan soliq tushumlarini kelajakdagi kutilayotgan miqdori aniqlanadi. Statistik usullar asosida hisobot davrida bazis davriga nisbatan soliq tushumlarining o'sish sur'atlari aniqlanadi.

Davlat byudjetining daromad qismini prognozlashda ehtimollar nazariyasi hamda statistikaning qanday usullari mahsuldor hisoblanadi?

Soliq tushumlarini prognozlashda qanday muammolar mavjud? “Soliq statistikasi va prognozi” fanining metodologiyasini takomillashtirish uchun nima qilish kerak?

TESTLAR

1. Soliqlarni prognozlashning bosh vazifasi qanday?

- A) Davlatning rejalashtirilgan barcha tadbirlarini amalga oshirish uchun zarur pul mablag'larining hajmi va manbalarini aniqlash;
- B) Daromadlar o'sish zaxiralarining namoyon bo'lish jihatlarini aniqlab, ularni tahlil qilish;
- C) Soliq to'lovchilarni tahlil qilish;
- D) Soliq to'lovchilarni nazorat qilish.

2. "Prognozlash" – bu:

- A) Obyekt yoki hodisani kelajakdagi holati, unga erishishning muqobil yo'llari to'g'risidagi ehtimolga yaqin tasavvurni ishlab chiqishdir;
- B) Xo'jalik va davlat subyektlari moliyaviy faoliyatining daromad qismini oldindan ko'ra bilishdir;
- C) Mo'ljallangan davr uchun yuridik shaxslarning moliya tizimi bo'g'inlari bilan o'zaro aloqa o'rnatishidir;
- D) Kelajakdagi me'yoriy yoki maqbul holatlarni o'rganishdir.

3. Soliq tushumlarini prognoz qilish nima uchun kerak?

- A) Soliq tushumlari hajmi va manbalarini oldindan bilish uchun.
- B) Xarajatlarni moliyalashtirish manbalarini rejalashtirish uchun.
- C) Soliq tushumlarini prognoz qilishning hech qanday ahamiyati yo'q.
- D) Soliq qarzдорliklarini majburiy undirib olish uchun kerak.

4. Prognozlashning belgilanishiga ko'ra qanday turi bor?

- A) Boshqaruv prognozi;
- B) Maxsus rejali prognoz;
- C) Rejadan tashqari prognoz;
- D) Elgilanmagan prognoz.

5. Soliq tushumlari prognozi quyidagilardan qaysi biriga asoslanadi?

- A) Milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari ko'rsatkichlariga;
- B) Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarga;
- C) Demografik ko'rsatkichlarga;
- D) Siyosiy partiyalarning faollik ko'rsatkichiga.

6. Prognozlash natijalarini ifodalash shakliga ko‘ra:

- A) Sifat prognozi;
- B) Reja prognozi;
- C) Nisbiy prognoz;
- D) Mutlaq prognoz.

7. Davlat soliq xizmati tizimida byudjetga to‘lovlar tushumini prognoz qilishning asosiy qoidasi qanday?

- A) hududlar bo‘yicha tushumlarni prognoz qilish;
- B) egri soliqlar tushumini prognoz qilish;
- C) resurs to‘lovlari bo‘yicha tushumlarni prognoz qilish;
- D) to‘g‘ri soliqlar bo‘yicha tushumlarni prognoz qilish.

8. Hududiy byudjet daromadlari prognozi qanday tuziladi?

- A) hududning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishini belgilovchi asosiy yo‘nalishlar tahlili asosida;
- B) daromad manbalarining soliq turlari bo‘yicha, imtiyozlarni hisobga olmagan holda;
- C) hududdagi soliq obyektlarining miqdoridan kelib chiqib;
- D) hududdagi soliq to‘lovchilarning miqdoridan kelib chiqib.

9. Haqiqiy ko‘rsatkichlarni statistik ishlov berish yordamida prognozlashda qanday maqsad ko‘zlanadi?

- A) qator yillar bo‘yicha haqiqiy tushumlardan kelib chiqib, keyingi yil uchun haqiqatga yaqin ko‘rsatkichni olish;
- B) yil davomidagi haqiqiy tushum yordamida keyingi yil uchun aniq ko‘rsatkichni olish;
- C) prognoz ko‘rsatkichlarini bajarish;
- D) soliq to‘lovchilarning ma’lumotlari.

10. Soliq tushumlarini prognozashtirish qaysi me‘yoriy hujjatlar asosida olib boriladi?

- A) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va DSQ me‘yoriy hujjatlari hamda Davlat statistika idoralarining hisobotlari;
- B) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qarorlari va buyruqlari;
- C) O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi;
- D) O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi asosida.

11. Soliq tushumlarining istiqbolini belgilash usullarini qaysi fan o‘rganadi?

- A) “Soliq statistikasi va prognozi” fani.
- B) “Mol-mulk solig‘i” fani.
- C) “Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish” fani.
- D) “Qo‘shilgan qiymat solig‘i” fani.

12. “Soliq statistikasi va prognozi” fanining obyekti nima?

- A) Soliq idorasi va tegishli vakolatli davlat idoralarining soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha tushumlar prognozini amalga oshirish borasida yuzaga keluvchi munosabatlar;
- B) Soliq idorasiga taalluqli bo‘lgan binolar;
- C) Davlat soliq qo‘mitasining nomoddiy aktivlari;
- D) Moliya vazirligining mulki.

13. Soliq statistikasining asosiy vazifalaridan birini ko‘rsating.

- A) Soliq tushumlarini xarakterlovchi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash.
- B) Soliq tushumlarini nazorat qilish.
- C) Soliq imtiyozlarini taqdim qilish.
- D) Hisobotlarni taqdim qilish.

14. Soliq statistikasi ko‘rsatkichlari qaysi hujjatlar asosida hisoblanadi?

- A) Korxona va tashkilotlar tomonidan taqdim qilinuvchi hisobotlar;
- B) Markaziy bankning ustavi;
- C) Moliya vazirligining qarori;
- D) Vazirlar Mahkamasining Faromni asosida.

1-slayd

Blits-so‘rov

Mavzuni jonlantirish uchun savollar

1. “Prognozlash” tushunchasi nimani anglatadi?
2. “Soliq statistikasi va prognozi” fanining predmeti, vazifalari.
3. Soliq statistikasi va prognozining o‘rganishining milliy iqtisodiyot uchun qanday ahamiyati bor?

Baholash mezoni va ko'rsatkichlari

Guruhlar	Savolning to'liq va aniq yoritilishi 0-0,3 ball	Misollar bilan muammoga yechim topishi 0-0,5 ball	Guruh a'zolarining faolligi 0-0,2 ball	Jami ball

Mavzuni jonlantirish uchun savollar

1. "Soliq statistikasi va prognozi" fanini o'qitish zaruriyati nimada?
2. Fanning boshqa fanlar bilan munosabati qanday?
3. "Soliq statistikasi va prognozi" fanining asosi nima?
4. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
5. Chet el tajribasining mustaqil davlatimiz soliq statistikasi va prognozini amalga oshirish jarayoni takomillashuvidagi ahamiyati.

«Muammoli vaziyat»

<i>«Muammoli vaziyat» turi</i>	<i>«Muammoli vaziyat» sabablari</i>	<i>Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari</i>
«Soliq statistikasi va prognozini amalga oshirish jarayonini o'rganishdan maqsad nima?»		

Keyingi mazvu bo'yicha tayyorlanib kelish uchun savollar

1. Rivojlangan mamlakatlarda yuritiluvchi soliq statistikasi va prognozi haqida ma'lumot
2. Soliq hisob-kitoblari yuritilishining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Soliqlarni hisoblash usullari.

3.2. Soliqlarni hisoblashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar va ularning iqtisodiy ahamiyati

Reja

1. Soliq hisob-kitoblarini yuritish, soliqlarni hisoblash va byudjetga o'tkazish tartibi.
2. Soliqlarni hisoblash usullari va soliqlarni hisoblashda foydalaniladigan ko'rsatkichlar.
3. Soliq stavkalari va ularning soliq tushumlari va boshqa majburiy to'lovlar hajmiga ta'siri.
4. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'lov muddatlari va ularning prognoz ko'rsatkichlarini belgilashdagi o'rni.
5. Rivojlangan mamlakatlarda daromad va korporativ solig'ini hisoblashda qo'llaniluvchi asosiy ko'rsatkichlar.

CASE-STUDY-1

“Munis” MChJ hisobot davrida 30 mln. so'mlik o'zi ishlab chiqqan mahsulotni ortib xaridorga jo'natgan. Hisobot davrida MChJ ortilgan mahsulotlar uchun faqat 15 mln. so'm olgan. “Munis” MChJ umumiy belgilangan tartibda soliqlarni to'laydilar. Firmaning hisobot davridagi ishlab chiqarish tannarxi 83 mln. so'mni tashkil qilgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib yuridik shaxslardan olinuvchi foyda solig'ini hisoblash va g'azna usullari asosida hisoblash tartibini tushuntirib bering. Foyda solig'i bo'yicha soliq tushumini prognoz qilishda qanday ko'rsatkichlardan foydalaniladi?

1-jadval

Ko'rsatkichlar	2012	2013	2014	2015	2016
Soliq to'lovchilar soni	4045	4265	4356	4986	5247
Soliq tushumi	60897	78654	87352	80629	91756
Imtiyoz summasi	4500	4500	3458	2679	5964

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, soliq to'lovchilar soni, soliq tushumi, imtiyoz summaslari bo'yicha:

- oddiy o'rtacha arifmetik;
- o'rtacha chiziqli cheklanish;
- dispersiya;
- o'rtacha kvadratik chetlanish kattaliklarini toping.

TESTLAR

1. Prognozlash sohasiga ko'ra necha turga bo'linadi?

- A) ijtimoiy prognozlash;
- B) mantiqiy prognozlash;
- C) matematik prognozlash;
- D) sun'iy va tabiiy prognozlash.

2. Miqyosiga ko'ra makro miqyosida prognoz qilishning qanday turi mavjud?

- A) milliy iqtisodiyot miqyosida;
- B) xususiy korxonalar miqyosida;
- C) byudjet tashkiloti miqyosida;
- D) bank miqyosida.

3. Ma'lumot olish manbaiga ko'ra soliq tushumlarini prognoz qilishning qanday usuli mavjud?

- A) erishilgan darajadan kelib chiqib soliqni prognoz qilish;
- B) soliq to'lovchilar bilan munosabat darajasi;
- C) likvidlik va balans;
- D) zanjirli bog'lanish.

4. Tuzilishi muddatiga ko'ra prognozlashning qanday turi mavjud?

- A) operativ va qisqa muddatli, uzoq muddatli;
- B) oldingi besh yil uchun prognozlash;
- C) oldingi ikki yil uchun prognozlash;
- D) kosmik vaqt muddatiga prognozlash.

5. Boshqaruv darajasiga ko‘ra soliqni prognoz qilishning qanday turi mavjud emas?

- A) mono darajada;
- B) mezodarajada;
- C) mikrodarajada;
- D) makrodarajada.

6. Soliq organlari amaliyotida prognozning qaysi davriy turi amalga oshiriladi?

- A) tezkor va qisqa muddatli prognoz;
- B) uzoq muddatli prognoz;
- C) o‘rta muddatli prognoz;
- D) muddatsiz.

7. Erishilgan darajadan kelib chiqib, soliqni prognoz qilish qanday ma’lumotlarga asoslanada?

- A) oldingi yillar ko‘rsatkichlari dinamikasiga;
- B) korxonalarining moliyaviy hisobotlariga;
- C) bank to‘lov hujjatlari va ko‘chirmalariga;
- D) rejalashtirilgan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga.

8. Soliq inspeksiyalarida byudjetga tushumlar prognozini amalga oshirishda qanday ma’lumotlardan foydalaniladi?

- A) moliya, statistika, bank, sug‘urta va notarial idoralardan olingan ma’lumotlar;
- B) ichki ishlar organlari ma’lumotlari;
- C) ijtimoiy-ta’minot organlarining ma’lumotlari;
- D) korxonalarining moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi hisobot ma’lumotlari.

9. Prognoz qilishning qisqa muddatli turi qanday muddatga mo‘ljallangan?

- A) bir yilga;
- B) bir oyga;
- C) uch yilga;
- D) bir chorakka.

10. Mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida prognoz qilish usulida qanday ma'lumotlardan foydalaniladi?

- A) korxonalarining moliyaviy va soliq hisobotlaridan;
- B) soliq idoralarining yig'ma hisobotlaridan;
- C) Savdo-sanoat palatasi ma'lumotlaridan;
- D) moliya idoralarining hisobotlaridan.

11. Soliq obykti deganda nimani tushunasiz?

- A) Soliqqa tortish bazasining asosini tashkil qiluvchi soliq elementini;
- B) Soliq hisoboti turini;
- C) Soliq hisob-kitobi turini;
- D) Soliq kreditini.

12. Soliqqa tortish bazasi deganda nimani tushunasiz?

- A) Soliq obyektining qiymatdagi miqdorini;
- B) Soliq subyektini;
- C) Soliq idorasining moddiy-texnik bazasini;
- D) Davlat Soliq qo'mitasining binosini.

13. Soliq to'lovlarini amalga oshirish muddatini belgilashning ahamiyati nimadan iborat?

- A) soliq to'lovlari tushumini bir tekisda tushishini va rejani choraklar va oylar bo'yicha bajarilishini ta'minlaydi;
- B) moliyaviy jazo qo'llash;
- C) peniya hisoblash;
- D) xarajatlarni oshirish.

14. Qat'iy belgilangan soliq kim tomonidan hisoblanadi?

- A) soliq xodimlari tomonidan;
- B) soliq to'lovchi tomonidan;
- C) arendator tomonidan;
- D) lizing beruvchi tomonidan.

15. Manbada ushlanuvchi soliq obykti nima?

- A) daromad;
- B) xarajat;
- C) foyda;
- D) yalpi tushum.

16. Soliq hisob- kitoblari nima asosida amalga oshiriladi?

- A) Buxgalteriya ma'lumotlari asosida.
- B) Statistika ma'lumotlari asosida.
- C) Soliq idoralaridagi ma'lumotlar asosida.
- D) Moliya vazirligining ma'lumotlari asosida.

17. Yuqori soliq stavkalari soliq summasiga qanday ta'sir qiladi?

- A) Soliq tushumlarini oshishiga olib keladi.
- B) Soliq tushumlarini kamaytiradi.
- C) Soliq tushumlariga ta'sir qilmaydi.
- D) Soliq xarajatlarini oshiradi.

1-slayd

Bilimlarni jonlantirish uchun savollar (blits-so'rov)

1. Soliq to'lovlarining soliq hisob-kitoblaridan farqli jihatlari nimada?
2. Soliq hisob-kitoblarini taqdim qilish bilan bog'liq soliq tushumlarini prognozlashning qanday muammolari mavjud?
3. Soliq to'lovi muddalarini aytib bering.

PARADOKSLAR USULI

O'qituvchi savollar tizimini ketma-ket berib, tinglovchilarning fikrlarini o'rganadi

Diagnostika natijalariga ko'ra ma'ruzani olib borish jarayonida tinglovchilarning qarama-qarshilikka (tushunchalardagi, bilimlardagi) kelishlarini ta'minlaydi. Bunday vaziyat asosan, tinglovchining tushunchalaridagi adashishlar va xatoliklar bilan bog'liq. Demak, bu muammoviy vaziyat tinglovchilarning oldingi fikr, tushunchalari va xulosalariga qarama-qarshi, paradoksal bo'lgan vaziyatdir.

Tinglovchilar muammoviy vaziyatni yuzaga keltirgan amallardagi xatolikni izlaydilar (lekin amallarda xatolik yo'q)

Ijodiy fikrlay oladigan tinglovchi amallarning bajarilishi jarayoni emas, balki mazkur amalning o'zi xato ekanligini aniqlay oladi (bunday tinglovchi topilmasa, o'qituvchining o'zi buni oshkor qilishiga to'g'ri keladi).

Amalli (proseduraviy) xatolik – noto'g'ri amalni to'g'ri bajarilishdir.

Paradokslar usulini qo'llash qoidalar

→ Tinglovchilar bilimlarini faollashtirib olish zarur.

→ Tinglovchilar paradoks obyekti sifatida olinayotgan jarayon haqida o'z fikrlari (qaysiki xato bo'lgan) to'g'ri degan xulosaga kelgan bo'lishlari kerak.

→ Tinglovchilar muammoviy vaziyatga o'zlari duch kelishlari kerak va to'g'ri deb bilgan narsalarining xato bo'lib chiqqanidan tushunmovchilikda qolishlari (xayron bo'lishlari) kerak. Bu o'ta muhim, chunki aynan shu sabab ular faol fikrlay boshlaydilar, xatolikni topishga harakat qiladilar.

→ Paradoksni, qarama-qarshilikni qandaydir bir qiyinchiliklar bilan adashtirmaslik lozim.

→ Paradokslar usuli bu avvaldan bilganlari bilan yangi bilimlar o'rtasidagi ko'prikdir. Shu tarzda yangi bilimning avvaldan ma'lum bilim bilan o'zaro bog'lanishi va bu **jarayonni his qilishga** tinglovchini «majbur» qilinishi uni xotirada mustamkamlanib qolishiga yordam beradi.

O'quv topshirig'i

Guruh №1

1. Soliq hisob- kitoblarining asosiy turlarini aytib bering.
2. Soliq hisob-kitoblarining asosini nima tashkil qiladi?
3. Soliq hisoboti nima?

Guruh №2

1. Soliq stavkasi mohiyatini tushuntirib bering
2. Davlat byudjeti daromad qismini prognozlash natijasiga soliq stavkasining ta'sirini sharhlab bering.
3. Soliq stavkasining turlarini aytib bering.

Tayanch iboralar

solliq elementlari;
 solliq solish bazasi;
 solliq stavkasi;
 solliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar.

Paradokslar usulini qo'llash qoidalari

→ Tinglovchilar bilimlarini faollashtirib olish zarur.

→ Tinglovchilar paradoks obyekti sifatida olinayotgan jarayon haqida o'z fikrlarini (qaysiki xato bo'lgan) to'g'ri degan xulosaga kelgan bo'lishlari kerak.

→ Tinglovchilar muammoviy vaziyatga o'zlari duch kelishlari kerak va to'g'ri deb bilgan narsalarining xato bo'lib chiqqanidan tushunmovchilikda qolishlari (xayron bo'lishlari) kerak. Bu o'ta muhim, chunki aynan shu sabab ular faol fikrlay boshlaydilar, xatolikni topishga harakat qiladilar.

→ Paradoksni, qarama-qarshilikni qandaydir bir qiyinchiliklar bilan adashtirmaslik lozim.

→ Paradokslar usuli – bu avvaldan bilganlari bilan yangi bilimlar o'rtasidagi ko'prikdir. Shu tarzda yangi bilimning avvaldan ma'lum bilim bilan o'zaro bog'lanishi va bu **jarayonni his qilishga** tinglovchini «majbur» qilinishi uni xotirada mustamkamlanib qolishiga yordam beradi.

Soliq hisobotini va hisob-kitoblarni soliq idoralariga taqdim qilishning quyidagi usullari mavjud:

- shaxsan olib borib berish tartibida;
- pochta orqali buyurtma xat bilan;
- telekommunikatsiya kanallari orqali elektron hujjat tarzida.

Soliq qonunchiligida soliq hisoboti va hisob-kitoblarini taqdim qilingan sana quyidagicha belgilanadi:

- soliq hisoboti shaxsan olib borib berish tartibida taqdim etilganda
- soliq hisoboti davlat soliq xizmati organi tomonidan qabul qilib olingan sana;
- soliq hisoboti pochta orqali buyurtma xat bilan taqdim etilganda - aloqa tashkilotining tamgʻasida koʻrsatilgan, pochta joʻnatmasi joʻnatilgan sana;
- soliq hisoboti elektron hujjat tarzida taqdim etilganda - elektron hujjat davlat soliq xizmati organi tomonidan olingan sana.

Soliq hisoboti va hisob-kitoblarini tuzishda quyidagilarni aks ettirish muhim hisoblanadi:

- soliq toʻlovchining identifikatsiya raqami;
- soliq davri va (yoki) soliq yoki boshqa majburiy toʻlov summasi;
- Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 43 va 44-moddalarida soliq hisobotini tuzishga doir belgilangan talablar.

3.3. Soliq elementlarining soliqlarni prognoziga taʼsiri

Reja

1. Soliq elementlarining tarkibi va ularni prognozlashdagi ahamiyati.
2. Soliqqa tortiladigan baza va uning elementlariga taʼsir etuvchi omillar.

3. Soliq to'lovchi yuridik shaxslarni faoliyat turiga hamda tashkiliy huquqiy shakliga ko'ra guruhlash va soliq tushumlarini tahlil qilish.

4. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning xo'jalik yurituvchi subyektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'siri.

5. Xorij adabiyotlarida soliq elementlari (soliq solish bazasi va soliq stavkalari) haqida berilgan tushunchalar.

CASE-STUDY-1

Toshkent viloyatida ro'yxatdan o'tgan qishloq xo'jaligi korxonasi uchun 7.45 mln so'mlik yer solig'i hisoblangan. Ushbu qishloq xo'jaligi korxonasi yagona yer solig'i to'lovchisi hisolanmaydi.

Eslatma: Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan yer solig'ini to'lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

-hisobot yilining 1 iyuliga qadar - yillik soliq summasining 20 foizi;

-hisobot yilining 1 sentyabriga qadar - yillik soliq summasining 30 foizi;

-hisobot yilining 1 dekabriga qadar - soliqning qolgan summasi.

Faraz qilaylik, agar yer solig'ining to'lash muddatini quyidagi tartibda o'zgartirsak, yer solig'i bo'yicha soliq tushumlarini prognoz qilish jarayonida qanday o'zgarish yuz berishi mumkin? Fikrlarni asoslagan holda bayon qiling.

Yer solig'ini to'lov muddatini quyidagicha faraz qilamiz:

-hisobot yilining 1 iyuliga qadar - yillik soliq summasining 5 foizi;

-hisobot yilining 1 sentyabriga qadar - yillik soliq summasining 5 foizi;

-hisobot yilining 1 dekabriga qadar - soliqning qolgan summasi.

1-masala.

Quyida O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatuvchi yuridik shaxslar turlari keltirilgan:

- tijorat tashkilotlari;
- notijorat tashkilotlari;
- rezident;
- norezident;
- xo'jalik shirkati va jamiyati;
- ishlab chiqarish kooperativ;

• unitar korxona va qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tuzilishi mumkin;

- mas'uliyati cheklangan jamiyat;
- qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat;
- sho'ba xo'jalik jamiyati;
- aksiyadorlik jamiyati;
- qaram xo'jalik jamiyati;

• unitar korxona;

• xo'jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxona;

• operativ boshqaruv huquqiga asoslangan Davlat unitar korxonasi;

- jamoat birlashmasi;
- ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa shaklida;

• shuningdek qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkin;

- kredit tashkilotlari;
- sug'urta tashkilotlari;
- qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari;
- o'zbekiston Respublikasi norezidentlari;
- ishlab chiqarish tashkilotlari;
- xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar;
- ish bajaruvchi tashkilotlar;
- transport xizmati ko'rsatuvchi tashkilotlar;
- savdo va umumiy ovqatlanish tashkilotlari;
- qishloq xo'jaligi korxonalari;
- vositachilik tashkilotlari;
- lizing tashkilotlari;

• benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslardir;

• qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari;

• kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari;

• lotereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar;

- qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar;

- o‘rmon va ovchilik xo‘jaliklari;
- yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi va qonun hujjatlarida tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar;
- soliq solishning soddalashtirilgan tartibidagi yuridik shaxslar;
- umumbelgilangan soliqlarni to‘lovchi yuridik shaxslar.

Yuqorida keltirilgan yuridik shaxslarni quyida keltirilgan belgilarga mos ravishda guruhlang:

- soliq solish tartibiga qarab;
- soliq kodeksida soliqqa tortishning o‘ziga xos xususiyatlari belgilangan faoliyat turlari bilan shug‘illanuvchi yuridik shaxslar;
- yuridik shaxslardan olinuvchi foyda solig‘ini hisoblash va to‘lashdagi o‘ziga xoslik bo‘yicha faoliyat turlari;
- faoliyat turiga qarab;
- tijoratchi tashkilot bo‘lmagan yuridik shaxs;
- unitar korxonalar;
- jamiyatlar;
- shirkatlar;
- O‘zbekiston Respublikasida davlat ro‘yxatidan o‘tganligiga qarab;
- foyda olish maqsadiga qarab.

2-masala.

1-jadval

Ko‘rsatkichlar nomi	O‘tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida	
	daromadlar (foyda)	xarajatlar (zararlar)	daromadlar (foyda)	xarajatlar (zararlar)
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum	5 106 057,00	x	7 245 097,00	x
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi	x	4 333 378,00	x	6 215 946,00
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foydasi	772 679,00	0,00	1 029 151,00	0,00

Davr xarajatlari, jami , shu jumladan:	x	393 182,00	x	506 360,00
--	---	------------	---	------------

2-jadval

Sotish xarajatlari	x	183 111,00	x	230 363,00
Ma'muriy xarajatlar	x	155 456,00	x	208 140,00
Boshqa operatsion xarajatlar	x	54 615,00	x	67 857,00
Hisobot davrining soliq solinadigan foydadan kelgusida chegiriladigan xarajatlari	x		x	
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	3 350,00	x	7 989,00	x
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)	382 847,00	0,00	530 780,00	0,00
Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami, shu jumladan:	16 406,00	x	6 488,00	x
Dividendlar shaklidagi daromadlar		x		x
Foizlar shaklidagi daromadlar		x		x

3-jadval

Moliyaviy ijaradan daromadlar		x		X
Valyuta kursi farqidan daromadlar		x		X
Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	16 406,00	x	6 488,00	X
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar , shu jumladan:	x	88 785,00	x	88 616,00
Foizlar shaklidagi xarajatlar		42 633,00		88 616,00
Moliyaviy ijara bo'yicha foizlar shaklidagi xarajatlar	x		x	
Valyuta kursi farqidan zararlar	x		x	
Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar	x	46 152,00	x	
Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)	310 468,00	0,00	448 652,00	0,00

4-jadval

Favquloddagi foyda va zararlar				
Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar)	310 468,00	0,00	448 652,00	0,00
Foyda solig'i	x		x	
Foydadan boshqa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar	x	259 232,00	x	383 756,00
Hisobot davrining sof foydasi (zarari)	51 236,00	0,00	64 896,00	0,00

Hisobot davri uchun

Ko'rsatkichlar nomi	Hisobot davri uchun to'lanadi	haqiqatda to'langani
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i		
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	30 002,00	20 329,00
shu jumladan: shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ajratmalar	300,00	300,00
Yagona soliq to'lovi	383 756,00	377 811,00
Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari	88 389,00	80 941,00
Import bo'yicha bojxona boji		
Mahalliy byudjetga yig'imlar		
Byudjetga to'lovni kechtirgani uchun moliyaviy jazo		
Jami byudjetga to'lovlar summasi	502 147,00	479 081,00

O'tgan davr uchun

Ko'rsatkichlar nomi	Hisobot davri uchun to'lanadi	haqiqatda to'langani
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i		
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	25 115,00	17597,00

shu jumladan: shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ajratmalar	251,15	251,15
Yagona soliq to'lovi	382954,275	377 811,00
Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari	73991,39	74846,00
Import bo'yicha bojxona boji		
Mahalliy byudjetga yig'imlar		
Byudjetga to'lovni kechtirgani uchun moliyaviy jazo		
Jami byudjetga to'lovlar summasi	482 060,67	470254

Topshiriq. Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan foydalanigan holda o'tgan yil va hisobot davlari uchun soliq yukini hisoblang.

TESTLAR

1. Qanday soliq to'lovchilarni alohida tartibda tahlil qilish tavsiya etiladi?

- A) tushumlari summasi barcha tushumlarning 80 foizidan kam bo'lmagan;
- B) tushumlari summasi barcha tushumlarning 50 foizidan kam bo'lmagan;
- C) tushumlari summasi barcha tushumlarning 60 foizidan kam bo'lmagan;
- D) tushumlari summasi barcha tushumlarning 70 foizidan kam bo'lmagan.

2. Mahalliy byudjet daromadlarini prognozlash asosan qaysi soliq turlari bo'yicha amalga oshiriladi?

- A) mahalliy soliqlar va yig'imlar;
- B) birlashtirilgan soliqlar;
- C) umumdavlat soliqlaridan ajratmalar;
- D) dotatsiyalar.

3. O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining maqsadli jamg‘armalarsiz daromadlari qanday tasniflanadi?

- A) to‘g‘ri soliqlar; egri soliqlar; resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i; yuqori foyda solig‘i; boshqa tushumlar;
- B) to‘g‘ri soliqlar; egri soliqlar; resurs to‘lovlari; infratuzilmani rivojlantirish solig‘i; boshqa tushumlar;
- C) respublika byudjeti; hududiy byudjetlar; mahalliy byudjetlar;
- D) Pensiya jamg‘armasi; Respublika Yo‘l jamg‘armasi; Maktab ta’limi jamg‘armasi.

4. Soliq tushumlarini tahlil qilishning qanday turlari mavjud?

- A) gorizonttal (davriy) tahlil;
- B) moliviy natijalar tahlili;
- C) baholi tahlil;
- D) dinamik tahlil.

5. Nisbiy miqdor ko‘rsatkichlari soliq tushumlari tahlili jara-yonida nimani ifodalaydi?

- A) reja-prognoz ko‘rsatkichlariga erishilganligini;
- B) reja-prognoz ko‘rsatkichlariga erishilmaganligini;
- C) tannarx kamayishini;
- D) yalpi daromadni.

6. Davlat byudjeti daromadlari tasnifiga ko‘ra bevosita soliqlar bo‘yicha tushumlar qaysi soliq manbalari hisobiga shakllanadi?

- A) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i; mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovidan davlat byudjetiga ajratma; yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i; savdo va umumiy ov-qatlanish korxonalari uchun yagona soliq to‘lovidan davlat byudjetiga ajratma;
- B) bojxona bojlari;
- C) tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilan-gan soliq; aksiz solig‘i;
- D) jismoniy shaxslarning transport vositalariga benzin, dizel yoqil-g‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

7. Soliq tushumlarining vertikal, ya'ni tarkibiy tahlili quyidagi ko'rsatkichlarning qaysi biri bo'yicha amalga oshiriladi?

- A) soliq turi bo'yicha tushumlarning umumiy byudjet daromadlaridagi salmog'i;
- B) jami soliq tushumlarida ma'lum bir korxonaning ulushi;
- C) jami soliq tushumlarida oyning salmog'i;
- D) jami soliq tushumlarida choraklarning salmog'i.

8. Soliq tushumlarini tahlil qilishda miqdor ko'rsatkichlarini qaysi birlaridan foydalaniladi?

- A) mutloq miqdor;
- B) moliyaviy ko'rsatkichlar;
- C) tannarx;
- D) deflyatorlar.

9. Soliq tushumlari tahlili qanday ma'lumotlarga asoslanadi?

- A) buxgalteriya va statistik hisobotlarga;
- B) "davr" ko'rsatuvida berilgan ma'lumotlarga;
- C) Sog'liqni saqlash vazirligi bergan ma'lumotlar asosida;
- D) ma'lumotsiz prognoz tahlili amalga oshiriladi.

10. Soliqlarni soliq idoralarida hisobga olish soliq to'lovchining qaysi hujjatlari asosida amalga oshiriladi?

- A) soliq to'lovchining soliq hisob-kitoblari va hisobotlari asosida;
- B) soliq to'lovchining ustavi asosida;
- C) ta'sis hujjatlari asosida;
- D) rahbar buyrug'i asosida.

11. Soliq davri deganda nimani tushunasiz?

- A) soliqqa tortish bazasini aniqlash va soliq summasini hisoblash;
- B) moliyaviy jazo qo'llash;
- C) peniya hisoblash;
- D) soliq tizimi tashkil qilingan davr.

12. Soliq stavkasi kim tomonidan belgilanadi?

- A) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori bilan;
- B) Moliya vazirligining qarori bilan;
- C) Davlat Soliq qo'mitasining bayonnomasi bilan;
- D) Oliy majlis Qarori bilan.

13. Soliq elementlari qanday belgilanadi?

- A) har-bir soliq turiga;
- B) barcha soliq turlariga umumiy;
- C) majburiy to'lovlar uchun umumiy;
- D) soliqlar va majburiy to'lovlar uchun umumiy.

14. Quyidagilardan qaysi biri soliqni qonuniy belgilash talabi hisoblanadi?

- A) soliq to'lovchini qonunda aniq ko'rsatish;
- B) soliq idorasini huquq va majburiyatlarini aniq belgilash;
- C) majburiy undirish choralari belgilash;
- D) Xalqaro byudjet manbasini ko'rsatish.

15. Soliq elementlarini qonunda belgilash nimani anglatadi?

- A) mazkur soliq qonun asosida o'rnatilganligini anglatadi;
- B) soliq kuchini yo'qotganligini;
- C) loyiha qayta ishlanishi zarurligini;
- D) qonun bir yildan keyin kuchga kirishini anglatadi.

16. Soliq obyektining paydo bo'lishdagi asosiy shartni ko'rsating:

- A) mulk, harakat, harakat natijasining mavjudligi;
- B) soliqchining mavjudligi;
- C) moliya vazirligining mavjudligi;
- D) moddiy-texnik bazaning mavjudligi.

1- slayd

24-modda. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari

Soliq yoki boshqa majburiy to'lov soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida soliq to'lovchilar, shuningdek, ushbu soliq yoki boshqa majburiy to'lovni hisoblab chiqarish va to'lash uchun zarur elementlar belgilab qo'yilgan taqdirdagina belgilangan deb hisoblanadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari quyidagilardir:

- soliq solish ob'ekti;
- soliq solinadigan baza;
- stavka;
- hisoblab chiqarish tartibi;
- soliq davri;
- soliq hisobotini taqdim etish tartibi;
- to'lash tartibi.

Soliq to'lovchilar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari har bir soliq yoki boshqa majburiy to'lovga tatbiqan belgilanadi.

Bilimlarni jonlantirish uchun savollar (blits-so‘rov)

1. Soliq elementlarining soliq tushumlarini prognozlashdagi ahamiyati nimadan iborat?
2. Soliq tushumlari tahlili qanday ma'lumotlarga asoslanadi?
3. Soliq elimentlari qanday belgilanadi?
4. Soliq davri deganda nimani tushunasiz?
5. Soliq tushumlarini tahlil qilishning qanday turlari mavjud?

3.4. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha tushumlarni prognoz qilish tartibi va usullari

Reja

1. O'zbekistonda iqtisodiyotni erkinlashtirish va diversifikatsiyalash sharoitida Davlat byudjeti daromad qismini prognozashtirishning mohiyati.
2. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha tushumlar prognozini tashkil qilish.
3. Davlat byudjeti daromadlarini prognoz qilishning usullari.
4. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha tushumlarning hisobini yuritishga doir dasturiy mahsullar.
5. Prognozlash natijalarining xatolari: xorij amaliyoti.

CASE-STUDY-1

Farz qilaylik, respublika soliq tizimida 4 turdagi soliq mavjud bo'lib 1-soliq 10 yil oldin, 2-soliq 5 yil oldin, 3-soliq o'tgan davrda, 4-soliq kelgusi davr uchun amalga joriy qilingan. Amalga joriy qilingan vaqtiga bog'liq holda soliqlarni prognoz qilishda qanday usullardan foydalanish mumkin? Har bir soliq uchun tanlangan prognoz usulini nima uchun tanlaganingizni sharhlab, asoslab bering.

CASE-STUDY-2

Soliq idoralarida soliqlar bo'yicha soliq tushumlari prognoz ko'rsatkichlari hisoblanadi va tegishli idoralarga taqdim qilinadi. Soliq idoralarida amalga oshiriluvchi soliq tushumlarini prognozlash jarayonlarini qanday toifalash mumkin? Harxil belgilar bo'yicha soliq tushumlarini prognozlashni guruhlang.

TESTLAR

1. Soliq tushumlari tahlili va prognozida soliq to'lovchilar qanday guruhlanadi?

- A) mulkchilik shakliga ko'ra;
- B) mahsulot turlariga ko'ra;
- C) tushum hajmiga ko'ra;
- D) ustav kapitali miqdoriga ko'ra.

2. Soliq idoralari ma'lumotlar bazasida soliq to'lovchi yuridik shaxslar qaysi mezonlar asosida tasniflanadi?

- A) yuridik manzili bo'yicha;
- B) ustav kapitali miqdori bo'yicha;
- C) tushum hajmi bo'yicha;
- D) moliviy holati bo'yicha.

3. Mulkchilik shakliga ko'ra yuridik shaxslar qanday toifalarga bo'linadi?

- A) davlat, jamoa, xususiy;
- B) aksiyadorlik, mas'uliyati cheklangan, xususiy;
- C) sanoat, qurilish, transport, savdo, xizmat ko'rsatish;
- D) xususiy, shaxsiy.

4. Yuridik shaxs holatini belgilashda ishtirok etadigan DSI ichki bo'linmalarini ko'rsatib bering?

- A) yuridik shaxslarni soliqqa tortish bo'limi;
- B) tahlil qilish bo'limi;
- C) soliq to'lovchilarga stirlarini berish bo'limi;
- D) soliq to'lovchilarni ro'yxatga olish bo'limi.

5. Soliq tushumlari tahlilida jismoniy shaxslar qanday guruhlanadi?

- A) yillik deklaratsiya asosida daromad solig'i to'lovchilar;
- B) aksiz solig'ini to'lovchilar;
- C) foyda solig'ini to'lovchilar;
- D) daromad solig'idan imtiyozga ega bo'lganlar.

6. Soliq statistikasida hukumat monitoringidagi vazirlik va idoralar soni nechtani tashkil qiladi?

- A) 22 ta;
- B) 15 ta;
- C) 32 ta;
- D) 42 ta.

7. Faoliyat turlari bo'yicha yuridik shaxslarning qanday toifalari mavjud?

- A) tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari, birjalar;
- B) sut mahsulotlari ishlab chiqaruvchi;
- C) un va un mahsulotlari;
- D) go'sht mahsulotlari ishlab chiqaruvchi.

8. SIAIJ-3 dasturida yuridik shaxslar maqomi bo'yicha 1-kodga qaysi korxonalar kiritiladi?

- A) aksiyadorlik jamiyatlari;
- B) xususiy korxonalar;
- C) byudjet tashkilotlari;
- D) kichik korxonalar.

9. SIAIJ-3 dasturida yuridik shaxslar maqomi bo'yicha 99-kodga qaysi korxonalar kiritiladi?

- A) boshqa tuman korxonalari;
- B) mas'uliyati cheklangan jamiyatlar;
- C) kasaba uyushmalari;
- D) xususiy firmalar.

10. SIAIJ-3 dasturida vazirlik va idoralar bo'yicha 999-kodga qaysi korxonalar kiritiladi?

- A) boshqa tashkilotlar va korxonalar;
- B) "O'zbekneftgaz" MXKga qarashli korxonalar;
- C) "O'zpaxtasanoat" uyushmasiga qarashli korxonalar;
- D) "O'zbek Ipagi" uyushmasiga qarashli korxonalar.

11. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda ...

- A) soliq imtiyozlari beriladi;
- B) stavka darajasi ko'tariladi;

- C) ko‘proq soliq summasi undiriladi;
- D) modernizatsiyaga soliqning ta’siri mavjud emas.

12. Soliq tushumlarini prognozi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar manbasini ko‘rsating:

- A) Davlat statistika idorasi ma’lumotlari;
- B) Birlashgan millatlar tashkilotining ma’lumotlari;
- C) Ombutsmandan olingan ma’lumotlar;
- D) Nodavlat va notijorat tashkilotlarning ma’lumotlari.

13. Davlat byudjetining daromad qismi rejasi kim tomonidan bajarilishi ta’minlanadi?

- A) soliq idoralari tomonidan;
- B) Birjalar asosiy rol o‘ynaydi;
- C) Davlat byudjetining xarajat qismi soliq idorasi tomonidan nazorat qilinadi;
- D) Oliy Majlis reja bajarilishini ta’minlaydi.

14. Davlat byudjeti prognoziga qanday omil ta’sir qiladi?

- A) Inflyatsiya darajasi;
- B) Soliq idorasining reytingi;
- C) Bank muassasining reytingi;
- D) Kredit tashkilotlarining faollik darajasi.

15. Byudjetning daromad qismini prognozlash nima asosida tashkil qilinadi?

- A) soliq va byudjet qonunchiligi me’yorlari asosida;
- B) auditorlik faoliyati qonuni normasi asosida;
- C) bank faoliyati to‘g‘risidagi qonun me’yorlari asosida;
- D) sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun me’yorlari asosida.

16. Qaysi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar byudjet daromadlarini rejalashtirishda inobatga olinadi?

- A) yalpi ichki mahsulot;
- B) sifatli mahsulotlar qiymati;
- C) valyutaning konvertatsiyasi;
- D) ekologiya muammolari.

17. Davlat byudjetini qisqa muddatli prognozi qanday muddatga belgilanadi?

- A) bir oydan bir yilga qadar;
- B) besh yildan o'n yilga qadar;
- C) o'n yildan yigirma yilga qadar;
- D) yigirma yil va undan ortiq muddatga.

1-slayd

Prognozlash turlari (munozara uchun)

Qancha davrga mo'ljallanganligi bo'yicha prognozlash quyidagi turlarga bo'linadi:	- operativ(joriy) - qisqa muddatli - uzoq muddatli - olis muddatli
Prognoz ko'lami bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:	- Makroiqtisodiy (milliy iqtisodiyot) - tarkibiy (tarmoqlararo, sektorlararo, mintaqalararo) - ayrim komplekslarni, sektorlar va mintaqalarni rivojlantirish prognozi - xo'jalik yurituvchi subyektlarni rivojlantirish prognozi - alohida ishlab chiqarish va mahsulotlarning prognozi

2-slayd

Prognozlashning asosiy tamoyillari: (munozara uchun) -muqobillik -asoslylik va to'g'rilik -adekvatlilik

Munozara qatnashchisiga eslatma:

! unozara munosabatni oydinlashtirishmas, balki muammoning yechish usuli adi.

2. Boshqalarga ham imkoniyat berish uchun juda uzoq so‘zlamagin.

3. Fikrlaring maqsadga yo‘nalishi uchun har bir so‘zni o‘ylab gapir, hayajoningni nazorat qil.

4. Opponent ahvolini tushunishga harakat qil va unga nisbatan hurmat nuqtai nazaridan munosabatda bo‘l.

5. Opponent tomonidan aytilgan fikrga nisbatan aniqroq e‘tiroz qil, uning fikrini o‘zgartirma va chalkashtirma.

Ma’ruzachilarni baholash mezonlari jadvali

Baholar	Ma’ruzaning to‘liqlik darajasi: yangiligi va aktualligi	Foydalanilgan texnik vositalar	Ma’lumot berishda foydalanilgan ma’lumot manbai	Vaqt	Jami
Ball hisobida	0.8	0,6	0,33	0,33	2
% da	40	30	15	15	100

Opponentlarni baholash mezonlari jadvali

F I Sh	Baholar	Ma’ruzaga qo‘shimcha	Munozarada ishtiroki	Ma’ruzani baholashda amaliy yondashuv (tanqidiy ko‘z bilan qarash qobiliyati)	Savollar		Jami
					Soni	Sifati	
	Ball hisobida	0,4	0,2	0,6	0,8		2
	% da	20	10	30	40		100

Munozara qatnashchilari	Savollar (har biriga 0,1)	Amalda (0,3)	Qo'shimcha (har biriga 0,2)	Jami

6-slayd

Taqrizchilarni baholash mezonlari jadvali

Taqrizchi	Ma'lum qilingan ijobiy jihatlari soni (har bir to'g'ri javobga 1 balldan)	Jami ballar
FISH		
FISH		
FISH		
FISH		

Yakunida jadval ma'ruzachi va opponentlar yiqqan ballar bilan to'ldiriladi, umumlashtiriladi, mashg'ulot o'qituvchisi yoki taklif qilingan ekspertlari yordamida yakuniy natija e'lon qilinadi.

Ushbu mashg'ulot har bir o'quvchini, mustaqil tarzda o'quv jarayoniga tayyorlashga mo'ljallangan va shu tariqa bu tarzdagi mashg'ulotlarni o'tkazish unumdorligiga erishiladi

7-slayd

Jonlantirish uchun savollar va topshiriqlar

1. Mulkchilik shakliga ko'ra yuridik shaxslar qanday toifalarga bo'linadi?
2. Prognozlash jarayonini tashkil qilish bosqichlarini tushuntirib bering.
3. Prognozlash va rejalashtirish o'rtasidagi farqni tushuntirib bering.
4. Soliq yukining nisbiy ko'rsatkichlarini aytib bering.
5. Soliq imtiyozlarida samarali foydalanish ko'rsatkichlari haqida so'zlab bering.

3.5. Soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatini bajarish tartibi va soliq qarzini majburiy undirishni tashkil etish

Reja

1. Soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni aniqlash hamda ularning hisobini yuritish.
2. Soliq qarzini to'lashni kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash.
3. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning ortiqcha to'langan summalarini hisobga olish hamda qaytarib berish.
4. Soliq qarzдорligini majburiy undirish tartibi.
5. Soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatini bajarish tartibi va soliq qarzini majburiy undirishni tashkil etish. Angliya tajribasi.

CASE-STUDY-1

“Nilufar” MChJ da oldingi hisobot davriga ko'ra foyda solig'i bo'yicha 14 mln. so'm, QQS bo'yicha 5 mln. so'm, mol-mulk solig'i bo'yicha 9 mln. so'm soliq boqimandasi yuzaga keldi.

Siz soliq inspektori sifatida soliq qarzдорligini undirish bo'yicha harakatlaringizni barcha yuz berishi mumkin bo'lgan holatlar bo'yicha bayon qiling.

CASE-STUDY-2

“Nilufar” MChJ oldingi hisobot davriga ko'ra foyda solig'i bo'yicha 14 mln. so'm, QQS bo'yicha 5 mln. so'm soliq boqimandasi, mol-mulk solig'i bo'yicha 5 mln. so'm, jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq bo'yicha 2 mln. so'm ortiqsa to'lov yuzaga keldi.

Siz soliq inspektori sifatida soliq qarzдорligini undirish bo'yicha harakatlaringizni barcha yuz berishi mumkin bo'lgan holatlar bo'yicha bayon qiling.

CASE-STUDY-3

Ko'rsatkichlar	2012	2013	2014	2015	2016
Soliq hisoblangan soliq summasi.mlrđ.so'mda	120.0	140.0	149.0	157.0	163.0
Undirilgan soliq summasi.mlrđ.so'mda	110.1	125.3	139.0	152.0	158.6
Boqimanda qarzları					
Ortiqcha to'lovlar.mlrđ.so'mda	11.2	13.5	15.9	19.0	22.0

1. Boqimanda qarzlari aniqlang.
2. Soliq tushumlari, boqimanda qarzlari, ortiqcha soliq to'lovlari o'rtasidagi bog'lanishning korrelyatsion koeffitsiyentini aniqlang va xulosa bering.

TESTLAR

1. Soliqlarni prognoz qilishda soliqlarning korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'siri tahlili nima uchun kerak?

- A) soliq tushumlari manbasi bo'lmish korxonalar soliq bazasining qay darajada shakllanayotganligini aniqlash;
- B) korxonalarda mahsulot tannarxini pasaytirish;
- C) soliq to'lovchilarni nazorat qilish;
- D) moliyaviy jarima qo'llash uchun.

2. Soliqlarning korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini tahlil qilishda qanday manbalar yoki ma'lumotlardan foydalaniladi?

- A) korxonalar moliya-xo'jalik faoliyati bo'yicha o'tkazilgan tekshirishlar va kameral nazorat ma'lumotlaridan;
- B) nizom ma'lumotlaridan;
- C) reestr ma'lumotlaridan;
- D) hisob-varaqa ma'lumotlaridan.

3. Korxonalarda soliq yuki tushunchasi nimani anglatadi?

- A) soliqqa tortish darajasini (me'yorini);
- B) to'langan jami soliqlarni;
- C) soliq stavkalarini;
- D) jami hisoblangan soliqlarni.

4. Xo'jalik subyektida qo'shilgan qiymatning tarkibi nimalardan tashkil topadi?

- A) ish haqi xarajatlari va me'yoriy foydadan;
- B) xom ashyo miqdoridan;
- C) mol yetkazib beruvchilardan olingan material resurslar qiymatidan;
- D) mol yetkazib beruvchilarga to'langan qo'shilgan qiymat solig'idan.

5. Korxonalar soliq yukini quyidagi usullardan qay biri bo'yicha aniqlash maqsadga muvofiq?

- A) soliqlarning qo'shilgan qiymatga nisbati;
- B) soliqlarning yalpi tushumga nisbati;
- C) soliqlarning korxona jami xarajatlariga nisbati;
- D) soliqlarning foydaga nisbati.

6. Korxonaning qo'shilgan qiymatini aniqlash uchun qaysi hujjatlardan foydalaniladi?

- A) moliyaviy natijalar to'g'risidagi 2-shakl hisobot;
- B) 1-shakl hisobot: buxgalteriya balansi;
- C) asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot;
- D) 3-sonli shakl 1t-shakl mehnat hisoboti.

7. Soliqlarning korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini tahlil qilishda asosan, qaysi soliqlar o'rganiladi?

- A) foyda solig'i, yer solig'i, mol-mulk solig'i;
- B) qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar;
- C) ish haqidan ushlanadigan soliqlar, yer solig'i, mol-mulk solig'i;
- D) oborotdan ajratmalar.

8. Soliqlarning korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'siri quyidagilarning qaysi biriga qarab o'zgarib turadi?

- A) faoliyatning fondtalablik darajasiga;
- B) soliqlar ta'sir qilmaydi;
- C) tannarxning kamayish darajasiga;
- D) soliqlarning ta'siri o'zgarmaydi.

9. Qaysi toifa korxonalarga mulkiy soliqlar ko'proq ta'sir qiladi?

- A) faoliyati fond talab bo'lgan korxonalarga;
- B) faoliyati material talab bo'lgan korxonalarga;
- C) mehnat sig'imi yuqori bo'lgan korxonalarga;
- D) tovar aylanishi katta korxonalarga.

10. Moliyaviy jarimalar korxonaga qanday ta'sir qiladi?

- A) zarar sifatida korxonaning foydasini kamaytiradi;
- B) moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'sir qilmaydi;
- C) korxonaga bo'lgan fiskal bosimni kamaytiradi;

D) foyda miqdorini oshiradi.

11. Yuridik shaxslarning soliq majburiyatlari qanday hollarda tugatiladi?

- A) yuridik shaxs likvidatsiya qilingandan keyin;
- B) yuridik shaxs boshqa yuridik shaxsga qo‘shib yuborilsa;
- C) yuridik shaxs modernizatsiya qilinganda;
- D) yuridik shaxs nomi o‘zgarganda.

12. Jismoniy shaxning soliq majburiyatlari qanday hollarda tugatiladi?

- A) jismoniy shaxs vafot etganda;
- B) jismoniy shaxs voyaga yetganda;
- C) jismoniy shaxs uylanganda;
- D) jismoniy shaxs chet elga ketganda.

13. Soliq majburiyati bo‘yicha da’vo muddati necha yil?

- A) 5 yil;
- B) 9 yil;
- C) 8 yil;
- D) 10 yil.

14. Soliq majburiyati bo‘yicha da’vo muddati qachon boshlanadi?

- A) soliq davri tugagandan keyin;
- B) soliq davridan oldin;
- C) soliq hisoblashdan oldin;
- D) soliq to‘lovidan oldin.

15. Soliq to‘lovlari muddati kim tomonidan uzaytirilishi mumkin?

- A) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
- B) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi;
- C) Moliya vazirligi;
- D) Davlat Soliq qo‘mitasi tomonidan.

16. Qushimcha hisoblangan soliq summasi soliq to‘lovchining aktivlarini necha foyizini tashkil qilsa, to‘lov muddati olti oyga uzaytiriladi?

- A) 20%;

- B) 30%;
- C) 40%;
- D) 50%.

17. Soliq qarzdorligini soliq to'lovchining debitoridan undirib olish nima deb ataladi?

- A) soliq qarzdorligini majburiy tartibda undirib olish;
- B) yarashish bitimi;
- C) soliq davrida soliqni to'lash;
- D) muddatidan oldin soliq summasini to'lash.

1- slayd

T/r	Soliq to'lovchining majburiyatlari
1	Davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishi.
2	Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni aniqlashi hamda ularning hisobini yuritishi.
3	Moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi hamda uni Davlat soliq xizmati organlariga taqdim etishi.
4	Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida hamda to'liq miqdorda to'lashi.
5	O'z soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi.
6	Buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi.
7	Davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi.
8	Soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan vaqtda Davlat soliq xizmati organlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar hamda ma'lumotlarni taqdim etishi.
9	Davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek, mazkur organlarning, ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi.

T/r	Soliq to'lovchining toifasi	Soliq majburiyati bajarilmagan holda tugatilish sabablari
1	Jismoniy shaxslar uchun	- vafot etgan deb e'lon qilish to'g'ri-sidagi sud qarori qonuniy kuchga kirishi bilan.
2	Yuridik shaxslar uchun	- tugatilganidan keyin; - qo'shib olish (qo'shib olingan yuridik shaxsga nisbatan), qo'shib yuborish, bo'lish va o'zgartirish orqali qayta tashkil etilganidan keyin.

Soliq qarzdorligi bo'yicha ortiqcha to'langan summasi soliq qarzini quyidagi ketma-ketlikda uzish hisobiga hisobga olinadi: - soliqning mazkur turi bo'yicha penya va jarimalarni uzish hisobiga; - boshqa turdagi soliqlar bo'yicha qarzni uzish hisobiga; - boshqa turdagi soliqlar bo'yicha penya va jarimalarni uzish hisobiga; - mazkur soliq bo'yicha kelgusi to'lovlar hisobiga; - boshqa turdagi soliqlar bo'yicha kelgusi to'lovlar hisobiga.

Nazorat savollari 1. Soliq to'lovlari muddati kim tomonidan uzaytirilishi mumkin? 2. Soliq majburiyati bo'yicha da'vo muddati qachon boshlanadi? 3. Yuridik shaxslarning soliq majburiyatlari qanday hollarda tugatiladi? 4. Soliqlarning korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini tahlil qilishda asosan, qaysi soliqlar o'rganiladi? 5. Korxonaning qo'shilgan qiymatini aniqlash uchun qaysi hujjatlardan foydalaniladi? 6. Q'shimcha hisoblangan soliq summasi soliq to'lovchining aktivlarini necha foyizini tashkil qilsa, to'lov muddati olti oyga uzaytiriladi? 7. Soliq qarzdorligini soliq to'lovchining debitoridan undirib olish nima deb ataladi?
--

3.6. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognoz qilish tartibi

Reja

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i va uning soliq to'lovchilari soni o'zgarishini soliq tushumiga ta'siri.

2. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognoz qilishda foydalaniluvchi asosiy ko'rsatkichlar.

3. Soliq organlarida tuziladigan soliq va boshqa majburiy to'lovlar to'g'risidagi hisobot turlari hamda foyda solig'i bo'yicha soliq stavkalari.

4. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognoz qilishning o'ziga xos jihatlari.

5. Yuridik shaxslardan olinuvchi foyda solig'ini prognozashtirishda soliq qarzi va debitorlik qarzlarini hisobga olish.

6. Buyuk Britaniyada korporativ daromad solig'ini prognoziga ta'sir qiluvchi omillar (soliq davri, hisobot topshirish davri, daromad turlari, yalpi soliq bazasi).

«DUMALOQ STOL ATROFIDA»

MUHOKAMA QILISH UCHUN SAVOLLAR

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini amalga joriy qilishning zarurati nimadan iborat?

2. Yuridik shaxslardan olinuvchi foyda solig'ining mohiyatini tushuntirib bering.

3. Yuridik shaxslardan olinuvchi foyda solig'i qanday prognozlantiriladi?

4. Yuridik shaxslardan olinuvchi foyda solig'i qanda hisob-kitob qilinadi?

5. Yalpi daromad va korxona foydasi tushunchalari o'rtasidagi farqni tushuntirib bering.

Ko'rsatkichlar	Oldingi besh yil					O'rtacha miqdor	Prognoz hisob-kitobi bilan qo'shiluvchi qiymat	Prognoz yili
	1	2	3	4	5			
Mahsulot, ish va xizmat sotuvidan tushum (jami daromad)	2246	2342	2451	2383	2569			
Tannarx	1523	1592	1618	1611	1679			
Chegilmaydigan xarajatlar	236	250	261	259	300			
Soliq imtiyozi	150	152	155	154	160			
Soliq bazasi	809	848	939	877	1030			
Soliq stavkasi	13	12	11	10	9			
Foyda solig'i summasi	105,17	101,76	103,29	87,7	92,7			

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan foydalangan holda yuridik shaxslardan olinuvchi foyda solig'ini prognoz qiling.

CASE-STUDY-1

Ko'rsatkichlar	2009	2010	2011	2012	2013
Foyda solig'ining soliq solish bazasi, mlrd so'm	15.0	17.0	17.5	20.0	22.0
Foyda solig'i summasi, mlrd. so'm	1.5	1.6	1.6	2.1	2.5

Yuqorida keltirilgan ma'lumlardan foydalanib, foyda solig'i bo'yicha soliq tushumini prognoz ko'rsatkichini hisoblang

CASE-STUDY-2

Ko'rsatkichlar	2009	2010	2011	2012	2013
Foyda solig'ining soliq solish bazasi, mlrd. so'm	20.0	23.0	22.0	19.0	23.5
Foyda solig'i summasi, mlrd. so'm	2.1	2.3	2.2	1.8	2.3

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, foyda solig'i bo'yicha soliq tushumini prognoz ko'rsatkichini hisoblang

TESTLAR

1. Qanday toifadagi tushum jami daromad tarkibiga qo'shilmaydi?

- A) ustav kapitaliga kiritilgan mablag';
- B) tekinga olingan mulk;
- C) sotuv tushumi;
- D) mulkni sotishdan olingan tushum.

2. Davlat subsidiyasi foyda solig'ini hisoblash bazasiga..

- A) qo'shilmaydi;
- B) qo'shiladi;
- C) QQS sifatida soliqqa tortiladi;
- D) Mulk solig'i stavkasida soliqqa tortiladi.

3. Notijorat tashkilotlarining ustav faoliyatini amalga oshirish uchun olingan mablag' foyda solig'iga ...

- A) tortiladi;
- B) tortilmaydi;
- C) hisobot davrida tortiladi;
- D) keyingi yilda tortiladi.

4. Qanday daromad turlari manbada soliqqa tortiladi?

- A) dividendlar va foyizlar;
- B) mahsulot sotuvidan tushgan tushum;
- C) xizmat ko'rsatishdan olingan tushum;
- D) ish bajarishdan olingan foyda.

5. Xarajatlar qanday guruhlarga bo'linadi?

- A) Chegiriluvchi va chegrilmaydigan xarajatlar;
- B) Milliy xarajatlar va dastlabki xarajatlar;
- C) Taxminiy xarajatlar va real xarajatlar;
- D) Dasturiy xarajatlar va hisob xarajatlari.

6. Xarajatning qanday turi chegiriluvchi xarajatlar tarkibiga kiradi?

- A) material;
- B) ma'naviy;
- C) davr xarajatlari;
- D) prognoz xarajatlari.

7. Xom ashyo qanday xarajat turiga kiradi

- A) material;
- B) mehnat;
- C) amortizatsiya;
- D) eskirish.

8. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognoz qilishda qanday ko'rsatkichlardan foydalaniladi?

- A) hamma javob to'g'ri;
- B) foyda solig'ining yalpi bazasi va u bo'yicha imtiyozli korxonlar ulushi;
- C) foyda solig'i bo'yicha boqimanda va ortiqcha to'lovlar ;
- D) foyda solig'i to'lovchilari soni, soliq stavkasi.

9. Foyda solig'ining byudjet daromadlaridagi ulushi so'nggi o'n yil mobaynida qanday tendensiyada bo'ldi?

- A) yildan yilga ko'payib kelmoqda;
- B) muntazam kamayib bormoqda;
- C) o'zgarmasdan barqaror tus olgan;
- D) har yili uch barobarga oshib bormoqda.

10. Foyda solig'i bo'yicha tushumlarni prognoz qilishda quyidagi usullardan qaysi biri samarali hisoblanadi?

- A) korxona ma'lumotlari asosida prognoz qilish usuli;
- B) erishilgan darajadan kelib chiqib prognoz qilish usuli;

- C) bir omilli tahlil usuli;
- D) statistik usul.

11. Foyda solig‘ining byudjet daromadlaridagi ulushi yildan yilga kamayib borayotganligi sababi nimada?

- A) foyda solig‘i stavkasining muntazam pasaytirib kelinayotganligi;
- B) foyda solig‘i to‘lovchilari sonining oshib borayotganligi;
- C) foyda solig‘idan imtiyoz olayotgan korxonalar sonining kamayib borayotganligi;
- D) korxona rahbarlari foydani ish haqiga sarf qilishi.

12. Foyda solig‘i bo‘yicha tushumlar ulushi u joriy qilingan dastlabki yillarga nisbatan qanchalik kamayib ketgan?

- A) 2 barobar kamaygan;
- B) kamaymagan;
- C) 5 barobar kamaygan;
- D) 3 barobar kamaygan.

13. Foyda solig‘ining yakuniy bazasini aniqlashda quyidagilar-dan qaysilari hisobga olinishi kerak?

- A) foyda solig‘i bazasidan chegirilmaydigan xarajatlar summasi;
- B) favqulodda foyda summasi;
- C) foyda solig‘i to‘langunga qadar foyda summasi;
- D) sof foyda summasi.

14. Foyda solig‘i to‘lovchilari soni u joriy qilingan dastlabki yillarga nisbatan qanchalik kamayib ketgan?

- A) qariyb 4 barobar kamaygan
- B) 5 barobar kamaygan
- C) 2 barobar kamaygan
- D) kamaymagan

15. Foyda solig‘i bo‘yicha tushumlar prognoz qilinganda quyidagilardan qaysi biri yakuniy ko‘rsatkich hisoblanadi?

- A) foyda solig‘ining kutilayotgan yig‘iluvchanlik darajasi;
- B) foyda solig‘ining yalpi bazasi;
- C) foyda solig‘i bo‘yicha kutilayotgan imtiyozlar summasi;
- D) foyda solig‘i to‘lovchilar soni.

Yuridik shaxslardan olinuvchi foyda solig'i qanday prognozlantiriladi?

F - fikringizni bayon eting.

S - fikringizni bayoniga biror sabab ko'rsating.

M - ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

Yuridik shaxslardan olinuvchi foyda solig'i bo'yicha prognoz natijalariga ta'sir qiluvchi omillar

Guruh talabalari	Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar	Soliq elementlarining ta'siri

Foyda solig'i stavkalari

Yillar	Stavka miqdori (foizda)
2000 yil	31
2001 yil	26
2002 yil	24
2003 yil	20
2004 yil	18
2005 yil	15
2006 yil	12
2007 yil	10
2008 yil	10
2009 yil	10
2013 yil	9
2014 yil	8
2015 yil	7.5
2016 yil	7.5

Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda quyidagi formula asosida ifodalanadi:	$YaF = SST - IT$, ya'ni YaF -yalpi foyda, SST -sotishdan olingan sof tushum, IT -sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.
Asosiy faoliyatdan olingan foydani aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:	$AFF = YaF - DX + BD - BZ$, bunda, AFF -asosiy faoliyatdan olingan foyda, DX -davr xarajatlari, BD -asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar, BZ -asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar.
Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar).	$UF = AFF + MD - MX$, bunda UF -umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda; MD -moliyaviy faoliyatdan daromadlar; MX -moliyaviy faoliyat xarajatlari;
Soliq to'languncha olingan foyda	$STF = UF + FP - F3$, bunda STF -soliq to'languncha olingan foyda; FP -favqulodda vaziyatdan olingan foyda; $F3$ -favqulodda vaziyatdan ko'rilgan zarar.

t/r	Doklad mavzulari
1	Foyda solig'ining yakuniy bazasini aniqlash
2	Foyda solig'i bo'yicha tushumlarni prognoz qilish
3	Foyda solig'i bo'yicha tushumlarni prognoz qilishning asosiy usullari

Nazorat savollari

Foyda solig'ini prognozlash jarayoniga soliq to'lovchilar sonining ta'siri
Foyda solig'ini prognozlash jarayoniga soliq imtiyozlarining ta'siri
Foyda solig'ini prognozlash jarayoniga mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining ta'siri

3.7. Qo‘shilgan qiymat solig‘i prognozini tashkil qilish

Reja

1. Qo‘shilgan qiymat solig‘i va uning soliq to‘lovchilari sonining soliq tushumi hajmiga ta’siri.
2. Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha berilgan imtiyozlar, soliq stavkalari va ularning prognoz ko‘rsatkichlarni hisoblashdagi o‘rni.
3. Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq tushumlarini prognoz qilishning xarakterli jihatlari.
4. Qo‘shilgan qiymat solig‘i oborotini aniqlash va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili asosida prognozlashtirish.
5. Iste’mol solig‘ining prognoz ko‘rsatkichlariga ta’sir qiluvchi asosiy omillar: soliq to‘lovchilari, soliq solish bazasi, soliq stavkalari (Yaponiya tajribasi).

Nazorat savollari

1. QQSni joriy qilinishining ommaviylashishini asosiy sabablari nimada?
2. QQSning respublikamiz soliq tizimiga joriy qilinishi.
3. QQSni hisoblashda qanday turdagi imtiyozlar qo‘llaniladi?
4. Imtiyozni qo‘llagan holda QQSni prognozlashning o‘ziga xos jihatlari nimadan iborat?
5. Qanday toifadagi oborotlar nol darajadagi stavkada QQSGa tortiladi?
7. QQS hisob-kitobining o‘ziga xos jihatlari nimadan iborat?

1-jadval

1-jadval Ko‘rsatkichlar	Oldingi besh yil					O‘rtacha miqdor	Prognoz hisob- kitobi bilan qo‘shiluv- chi qiymat	Prognoz yili
	1	2	3	4	5			
Mahsulot, ish va xizmat sotuvidan tushum (jami daromad), jumladan, mln. so‘mda.	546490	695589	750269	798611	896459			

«O» stavkada soliq solinadigan obrot summasi (eksportdan tashqari), mln. soʻmda.	45048	51648	57832	59897	62144			
«O»stavkada soliq solinadigan obrot summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar), mln. soʻmda.	112356	145289	167910	198271	230451			

2-jadval

QQS boʻyicha soliq imtiyoziga ega boʻlgan obrot summasi, mln.soʻmda	82192	94913	101950	112020	156670			
20% stavkada undiriladigan qoʻshilgan qiymat soligʻini hisoblash bazasi, mln.soʻmda.	306894	403739	422577	428423	447194			
Soliq stavkasi, %da	20	20	20	20	20			
Hisoblangan qoʻshilgan qiymat soligʻi, mln.soʻmda.	61378,8	80747,8	84515,4	85684,6	89438,8			

1, 2 jadval maʼlumotlari asosida QQS tushumini prognoz qiling.

CASE-STUDY-1

Koʻrsatkichlar	2012	2013	2014	2015	2016
Tovarlar, ishlar, xizmatlar realizatsiya qilish oborotlari, jami, mlrd soʻm.	100.0	120.0	125.5	133.0	140.0
Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushum, mlrd soʻm.	94.0	114.0	116.2	124.0	132.0
QQSdan ozod qilinadiganlari, mlrd soʻm.	5.0	6.0	6.5	7.3	8.1
Nol darajali stavka boʻyicha soliq solinadiganlari, mlrd. soʻm.	12.0	13.0	14.0	14.6	15.9

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, QQS bo'yicha soliq tushumini prognoz ko'rsatkichini hisoblang.

TESTLAR

1. Kimlar qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari hisoblanmaydi?

- A) soddalashtirilgan soliqqa tortish turi soliq to'lovchilari;
- B) yuridik shaxslar;
- C) qo'shma korxonalar;
- D) aksionerlik jamiyatlari.

2. Qo'shilgan qiymat solig'i qanday hisoblanadi?

- A) soliqqa tortish bazasi va soliq stavkasi asosida;
- B) soliq summasini to'lash asosida;
- C) da'vo qo'zg'ash asosida;
- D) Davlat ro'yxatiga o'tmasdan.

3. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisob – kitob qanday usulda amalga oshiriladi?

- A) soliq summasi yil davomida o'suvchanligi tartibida;
- B) har bir soliq davri uchun soliq summasi alohida hisoblanadi;
- C) ehtimollar nazariyasi usullaridan foydalanib;
- D) davriy usulda.

4. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha ortiqcha to'langan soliq miqdori qanday hujjat asosida qaytariladi?

- A) solishtirma dalolatnoma;
- B) yuk xati;
- C) deklaratsiya;
- D) kvitantsiya.

5. Qo'shilgan qiymat solig'i tushumi prognozida qanday soliq elementi muhim ahamiyat kasb etadi?

- A) soliqqa tortiluvchi baza va stavka;
- B) Identifikatsion raqam;
- C) guvohnoma;
- D) soliq to'lovchining litsenziyasi.

6. Qo'shilgan qiymat solig'ini nolli stavkada hisoblanishi soliq tushumi prognoziga qanday ta'sir qiladi?

- A) qo'shilgan qiymat solig' tushumini kamaytiradi;
- B) qo'shilgan qiymat solig' tushumini oshiradi;
- C) qo'shilgan qiymat solig' tushumiga ta'sir qilmaydi;
- D) 100 mln. so'mdan oshsa, ta'sir qiladi.

7. Qo'shilgan qiymati solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari soliq tushumi prognoziga qanday ta'sir qiladi?

- A) qo'shilgan qiymat soliq tushumini kamaytiradi;
- B) qo'shilgan qiymat soliq tushumini oshiradi;
- C) qo'shilgan qiymat soliq tushumiga ta'sir qilmaydi;
- D) 100 mln. so'mdan oshsa, ta'sir qiladi.

8. Qo'shilgan qiymat solig'ini prognoz qilishda qanday ko'rsatkichlar tahlilga kiritiladi?

- A) soliq stavkasi va imtiyozlar;
- B) soliq to'lovchilar tarkibi;
- C) reestrlar soni;
- D) QQS bo'yicha ijobiy tafovut summolari.

9. Qo'shilgan qiymat solig'ining byudjet daromadlaridagi ulushi so'nggi o'n yil mobaynida qanday tendensiyada bo'ldi?

- A) kam o'zgargan holda nisbatan barqaror tus olgan;
- B) muntazam kamayib bormoqda;
- C) yildan yilga ko'payib kelmoqda;
- D) Katta tebranishga ega.

10. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha tushumlarni prognoz qilishda quyidagi usullardan qaysi biri samarali hisoblanadi?

- A) erishilgan darajadan kelib chiqib prognoz qilish usuli;
- B) mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida prognoz qilish usuli;
- C) bir omilli tahlil usuli;
- D) ko'p omilli tahlil usuli.

11. QQS bo'yicha manfiy tafovut summasi qaysi byudjet hisobidan qoplab beriladi?

- A) Respublika byudjeti hisobidan;

- B) hududiy byudjetlar hisobidan;
- C) tuman (shahar) byudjetlari hisobidan;
- D) davlat maqsadli fondlari hisobidan.

12. QQS bo'yicha manfiy tafovut summasining qoplab berilishi mahalliy byudjet daromadlariga qanday ta'sir ko'rsatadi?

- A) boshqa soliqlarga yo'naltirilishi mahalliy byudjet daromadlarini ko'paytiradi;
- B) mahalliy byudjet daromadlariga umuman ta'siri yo'q;
- C) mahalliy byudjet daromadlarini kamaytiradi;
- D) faqat foyda solig'iga ta'sir qiladi.

13. QQSning yalpi bazasini aniqlashda quyidagilardan qaysilari hisobga olinadi?

- A) yalpi ichki mahsulot;
- B) QQSdan ozod qilinmagan sohada yaratilgan tovarlar, ishlar va xizmatlar;
- C) foyda miqdori;
- D) mahsulot sifati.

14. QQS to'lovchilari soni u joriy qilingan dastlabki yillarga nisbatan qanchalik kamayib ketgan?

- A) 4 barobar kamaygan;
- B) 5 barobar kamaygan;
- C) 2 barobar kamaygan;
- D) kamaymagan.

15. QQS bo'yicha tushumlar prognoz qilinganda quyidagilardan qaysi biri yakuniy ko'rsatkich hisoblanadi?

- A) QQSning kutilayotgan yig'iluvchanlik darajasi;
- B) QQSning yalpi obykti;
- C) QQS to'lovchilar soni;
- D) QQS bo'yicha kutilayotgan imtiyozlar summasi.

t/r	Qo'shilgan qiymat soliq to'lovchilari
1	Soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar.
2	O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar.
3	Tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar.
4	Oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yuridik shaxs.

QQS bo'yicha berilgan soliq imtiyozlari: 1) soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti (208-modda); 2) soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar (209-modda); 3) soliqdan ozod etiladigan sug'urta xizmatlari (210-modda); 4) soliqdan ozod etiladigan import.
--

Qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobi asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar
Hisobot davrida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) summasi
Avvalgi soliq davrida eksportga realizatsiya qilingan tovarlar bo'yicha tushum joriy soliq davrida kelib tushishi munosabati bilan hisobga olinadigan QQS summasi
Hisobga olinadigan jami QQS summasi
Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti bo'yicha QQS summasi
Byudjetga to'lanadigan (kamaytiriladigan) QQS summasi

Tahlil uchun olinayotgan ma'lumot manbasiga qarab qo'shilgan qiymat solig'i tushumlarini prognoz qilish usullarini quyidagilarga ajratishimiz mumkin:

- haqiqiy erishilgan darajadan kelib chiqib, prognoz qilish usuli;
- mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar (korxona ma'lumotlari) asosida prognoz qilish usuli;
- makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida prognoz qilish usuli;
- kop omilli tahlil asosida prognoz qilish usuli.

Nazorat savollari

1. QQSning yalpi bazasini aniqlashda qanday omillar e'tiborga olinadi?
2. QQS bo'yicha manfiy tafovut summasining qoplab berilishi mahalliy byudjet daromadlariga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Qo'shilgan qiymat solig'ini prognoz qilishda qanday ko'rsatkichlar tahlilga kiritiladi?
4. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisob – kitob qanday usulda amalga oshiriladi?

3.8. Aksiz solig'ini prognoz qilish tartibi

Reja

1. Aksiz solig'ining mohiyati va uning davlat byudjetining daromad qismini shakllantirishdagi ahamiyati.
2. Aksiz solig'i tushumlarini prognoz qilishda soliq obyekti va soliq solish bazasini aniqlashning o'ziga xosligi.
3. Aksiz solig'i tushumini, prognoz qilishda foydalaniluvchi ma'lumotlar hamda aksiz solig'i to'lovchilari va ular sonining soliq tushumi hajmiga ta'siri.
4. Aksiz solig'ini prognoz qilishning o'ziga xos xususiyatlari.

5. Soliq tarkibini o'zgartirish vositasida soliq tushumining o'zgaruvchanligini kamaytirish(xorij amaliyoti).

O'quv topshirig'i

Guruh №1

1. Aksiz solig'i qanday funksiyalarni bajaradi?
2. Aksiz solig'i Davlat byudjetini daromad qismini shakllantirishda qanday rol o'ynaydi?
3. O'simlik yog'idan aksiz solig'i undirilishini asoslab bering.

Guruh №2

1. Aksiz so'zi nimani anglatadi?
2. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga aksiz solig'ini joriy qilish zarurati qanday sharhlanadi?
3. Aksiz solig'ini undirishda qanday aksiz solig'i stavkalari qo'llaniladi.

1-jadval

Aksiz osti mahsulotlar	2008 yilda haqiqatda to'langan aksiz solig'i miqdori, mln.so'mda	2009 yilda haqiqatda to'langan aksiz solig'i miqdori		2010 yilda haqiqatda to'langan aksiz solig'i miqdori		2011 yilda haqiqatda to'langan aksiz solig'i miqdori	
		mutloq miqdori,mln.so'mda	2008 yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da	mutloq miqdori, mln.so'mda	2009 yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da	mutloq miqdori, mln.so'mda	2010 yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
Alkagol mahsulotlari	1256	1295		1334		1361	
Tamaki mahsulotlari	955	1001		1123		1185	
Yog' mahsulotlari	645	693		732		784	

2-jadval

2012 yilda haqiqatda to'langan aksiz solig'i miqdori		2013 yilda haqiqatda to'langan aksiz solig'i miqdori		Prognozashtirilayotgan yilda kutilayotgan aksiz solig'i miqdori	
mutloq miqdori,mln.so'mda	2011 yilga nisbatan o'sish sur'ati,%da	mutloq miqdori, mln.so'mda	2012 yilga nisbatan o'sish sur'ati,%da	2013 yilga nisbatan kutilayotgan o'sish sur'ati,%da	Kutilayotgan aksiz solig'i miqdori,mln.s o'mda

1392		1495			
1260		1300			
830		865			

1 va 2 jadval ma'lumotlari asosida, $O'_i = A_0 + A_1i$ formuladan foydalanigan holda to'g'ri chiziqqli regressiya tenglamasini tuzing va aksiz solig'ini prognozlashtiring.

CASE-STUDY-1

Ko'rsatkichlar (aksiz solig'i)	2011	2012	2013	2014	2015
Alkagol mahsulotlari, mlrd so'm	12.0	15.0	16.5	18.0	20.0
Tamaki mahsulotlari, mlrd so'm	3.5	5.6	7.6	9.1	11.5

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, aksiz solig'i bo'yicha soliq tushumini prognoz ko'rsatkichini hisoblang.

CASE-STUDY-2

Ko'rsatkichlar (aksiz solig'i)	2011	2012	2013	2014	2015
Alkagol mahsulotlari, mlrd so'm	18.0	20.0	19.0	25.0	24.5
Tamaki mahsulotlari, mlrd so'm	7.1	10.3	11.2	13.8	16.3

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, aksiz solig'i bo'yicha soliq tushumini prognoz ko'rsatkichini hisoblang.

TESTLAR

1. Aksiz solig'i tushumini prognozi nimani belgilaydi?

- A) Prognoz davrida aksiz solig'i bo'yicha soliq tushumi rejasi belgilanadi.
- B) Soliq sohasida qonunbuzarliklarning oldi olinadi.
- C) Aksiz solig'i bo'yicha yangi hisobot shakli ishlab chiqiladi.
- D) Davlat ro'yxatiga olinadi.

2. Aksiz solig'i to'lovchilar sonining oshishi prognoz ko'rsatkichiga qanday ta'sir qiladi?

- A) Aksiz solig'i tushumini oshish ehtimolini oshiradi;
- B) Aksiz solig'i tushumiga ta'sir qilmaydi;
- C) Aksiz solig'i tushumini kamayish ehtimolini oshiradi;
- D) Aksiz solig'i tushumini kamaytiradi va foyda solig'i tushumini oshiradi.

3. Qanday mahsulotlar sotuvi aksiz solig'i to'lanishidan ozod qilingan?

- A) Eksportga chiqariluvchi mahsulotlar;
- B) Importga chiqariluvchi tovarlar;
- C) Barter operatsiyalari;
- D) Plastik kartochkaga sotilgan tovarlar.

4. Mutloq miqdorda soliq stavkasi asosida aksiz solig'i bazasi qanday o'lchov birligida o'lchanadi?

- A) naturada;
- B) so'mda;
- C) dollarda;
- D) Yevroda.

5. Aktsiz solig'ining foyizda belgilanuvchi stavkasi qanday nomlanadi?

- A) advalor;
- B) aktuariy;
- C) adjaster;
- D) amnisiya.

6. Aktsiz solig'ining soliq davri qanday?

- A) chorak;
- B) yillik;
- C) 9 oylik;
- D) 15 oylik.

7. Aktsiz solig'i bo'yicha soliq hisob-kitobini taqdim qilish muddati qanday?

- A) chorak tugashi bilan yangi oyning 25 sanasi;

- B) chorak tugashi bilan yangi oyning 28 sanasi;
- C) chorak tugashi bilan yangi oyning 29 sanasi;
- D) chorak tugashi bilan yangi oyning 30 sanasi.

8. Aksizlar bo'yicha soliq tushumlari prognozini ishlab chiqishda quyidagi usullardan qaysilari qo'llaniladi?

- A) ekstrapolyatsiya usuli;
- B) nazorat usuli;
- C) mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar usuli;
- D) bir omilli tashxis usuli.

9. Aksiz solig'i bo'yicha tushumlar prognozini qaysi davlat idoralari tizimi amalga oshiradi?

- A) Moliya vazirligi va uning quyi idoralari;
- B) tamaki mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar;
- C) alkogol ichimliklarini ishlab chiqaruvchi korxonalar;
- D) Davlat mulk qo'mitasi.

10. Aktsiz markalarini sotishdan tushumlar byudjet daromadlarining qaysi moddasiga kiritiladi?

- A) boshqa daromadlarga;
- B) aksiz solig'i tushumlariga;
- C) bevosita soliqlarga;
- D) favquloddagi daromadlariga.

11. Quyi soliq idoralarida aksizlar bo'yicha soliq tushumlari prognozi ishlab chiqishda qaysi bo'limlar qatnashadi?

- A) yuridik shaxslarga soliq solish bo'limi;
- B) jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limi;
- C) kameral nazorat sho'xbasi;
- D) soliq tekshiruvlari bo'limi.

12. Aktsiz solig'i tushumlari tahlilida uning qanday stavkalari o'rganiladi?

- A) o'lchov birligiga nisbatan so'mlardagi stavkalar;
- B) eng kam ish haqi miqdorlaridagi qat'iy stavkalar;
- C) tovar tannarxiga nisbatan foizlardagi stavkalar;
- D) eng kam ish haqi miqdorlaridagi foiz stavkalar.

13. O‘zbekistonda necha tur mahsulotlarga aksiz solig‘i belgilangan?

- A) 14 tur;
- B) 10 tur;
- C) 12 tur;
- D) 15 tur.

14. Aktsiz solig‘i bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichi ta’minlanishida avans to‘lovlar qaysi muddatlarda amalga oshiriladi?

- A) har o‘n kunlik uchun oyda uch marotaba;
- B) har o‘n besh kunlik uchun oyda ikki marotaba;
- C) har oy uchun chorakda uch marotaba;
- D) har chorak uchun yilda uch marotaba.

15. Respublika bo‘yicha aksiz solig‘i tushumlarining yakuniy prognozini qaysi idora amalga oshiradi?

- A) Moliya vazirligi;
- B) Davlat soliq qo‘mitasi;
- C) Iqtisodiyot vazirligi;
- D) Davlat bojxona qo‘mitasi.

1-slayd

Aksiz solig‘i tushumini prognoz qilishda foydalaniluvchi ko‘rsatkichlar va ma’lumot manbalari:

Aksiz solig‘i tushumini prognoz qilishda foydalaniluvchi mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum, sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi, jami hisoblangan va to‘langan aktsiz solig‘i summasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot shaklidan ham olinadi.

Tayanch iboralar

Aksiz
 Aksiz solig'i stavkalari
 Aksiz solig'i to'lovchilari
 Aksiz solig'i solinadigan obyekt
 Aksiz solig'ining soliq solinadigan bazasi

Nazorat savollari

1. Davlat byudjetini daromad qismini shakllantirishda aksiz solig'ining ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Aksiz solig'ining asosiy funksiyalarini aytib bering.
3. O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan aksiz osti mahsulotlardan aksiz solig'i undirishning o'ziga xosligi nimadan iborat?
4. Aksiz solig'iga tortiluvchi ijtimoiy zararli tovarlar haqida gapirib bering.
5. Aksiz solig'iga tortiladigan keng iste'mol qilinadigan tovarlar haqida gapirib bering.
6. Import tovarlaridan aksiz solig'i undirish jarayonini tushuntirib bering.
7. Aksiz solig'ini prognoz qilish usullari haqida gapirib bering.

3.9. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilish

Reja

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va uni soliq to'lovchilari soni o'zgarganda soliq tushumiga ta'siri.
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining prognoz ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi omillar.
3. Jismoniy shaxslarning daromad solig'ini prognozashtirishda foydalanadigan ma'lumotlar.
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilishning o'ziga xos xususiyatlari.
5. Jismoniy shaxslar tomonidan soliqni rejalashtirish (Angliya

misolida).

1-jadval

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va uning soliq solish bazasi	2011 yilda haqiqatda jismoniy shaxslardan olingan daromad solig'i miqdori, mln.so'mda	2012 yilda haqiqatda jismoniy shaxslardan olingan daromad solig'i miqdori		2013 yilda haqiqatda jismoniy shaxslardan olingan daromad solig'i miqdori		2014 yilda haqiqatda jismoniy shaxslardan olingan daromad solig'i miqdori	
		mutloq miqdori, mln. so'mda	2011yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da	mutloq miqdori, mln. so'mda	2012 yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da	mutloq miqdori, mln.so'mda	2013 yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq soish bazasi	625	640		670		702	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	75	83,2		93,8		105,3	

2-jadval

2015 yilda haqiqatda jismoniy shaxslardan olingan daromad solig'i miqdori		2016 yilda haqiqatda jismoniy shaxslardan olingan daromad solig'i miqdori		Prognozlashtirilayotgan yilda kutilayotgan jismoniy shaxslardan olinuvchi daromad solig'i miqdori	
mutloq miqdori, mln.so'mda	2014 yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da	mutloq miqdori, mln.so'mda	2015 yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da	2016 yilga nisbatan kutilayotgan o'sish sur'ati, %da	Kutilayotgan jismoniy shaxslardan olinuvchi daromad solig'i miqdori, mln.so'mda
720		760			
115,2		129,2			

1 va 2 - jadval ma'lumotlari asosida, $O'_i = A_0 + A_1i$ formuladan foydalangan holda to'g'ri chiziqqli regressiya tenglamasini tuzing va

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognozlashtiring

CASE-STUDY-1

3-jadval

Ko'rsatkichlar	2012	2013	2014	2015	2016
Ish haqi fondi,mlrd so'm	3.5	3.7	4.8	5.2	5.7
Jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq, mlrd. so'm	1.2	1.4	1.9	2.3	2.6

3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq bo'yicha soliq tushumini prognoz ko'rsatkichini hisoblang.

CASE-STUDY-2

4-jadval

Ko'rsatkichlar	2012	2013	2014	2015	2016
Ish haqi fondi,mlrd so'm	10.0	13.0	17.0	19.0	23.5
Jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq, mlrd. so'm	2.1	2.3	2.9	3.4	4.1

4-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq bo'yicha soliq tushumini prognoz ko'rsatkichini hisoblang.

TESTLAR

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilishda qaysi tur daromadlar tahlilga kiritiladi?

- A) Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- B) Nomulkiy daromadlar;
- C) Nomoddiy naf tarzidagi daromadlar;
- D) Tadbirkorlik faoliyatidan daromadlar.

2. Ish beruvchilar tomonidan to'lov manbaida ushlab qolinadigan daromad solig'i bo'yicha birlamchi prognozni DSIning qaysi bo'linmasi amalga oshiradi?

- A) Yuridik shaxslarga soliq solish bo'limi;
- B) Jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limi;
- C) Hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi;
- D) Kameral nazorat bo'limi.

3. Yuridik shaxslar tomonidan jismoniy shaxslarning qanday daromadlariga to'lov manbaida soliq solinadi?

- A) Jismoniy shaxslarning mol-mulkni yuridik shaxsga ijaraga berishdan oladigan daromadlariga;
- B) Jismoniy shaxslarning mol-mulkni jismoniy shaxsga ijaraga berishdan oladigan daromadlariga;
- C) Mulk huquqini sotishga;
- D) Mol-mulklarni sotishga.

4. Mehnatga haq to'lash va moddiy naf tariqasidagi daromadlar bo'yicha soliq tushumlarining birlamchi prognozi qaysi hisobot ma'lumotlariga asoslanadi?

- A) 1T-shakl, "Mehnat hisoboti";
- B) Asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot, 3-sonli shakl;
- C) 2-shakl "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot;
- D) 1-shakl "Buxgalteriya balansi".

5. Deklaratsiya asosida soliqqa tortiladigan daromadlar bo'yicha soliq tushumlarining birlamchi prognozini DSIning qaysi bo'limi amalga oshiradi?

- A) Jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limi;
- B) Yuridik shaxslarga soliq solish bo'limi;
- C) Hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi;
- D) Kameral nazorat bo'limi.

6. Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga qanday daromadlar kiradi?

- A) Jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan

daromadlari;

B) Jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha foiz daromadlari, shuningdek, jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari;

C) Fuqarolarning sug'urta to'voni sifatida oladigan summalari;

D) korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan vaqtinchalik qishloq xo'jaligi ishlariga yuborilgan jismoniy shaxslarning shu ishlarni bajarishdan olingan daromadlari.

7. 1-T shakl "Mehnat hisoboti"dan daromad solig'i prognozi uchun qanday ma'lumotlar olinadi?

A) Hisoblangan daromadlar, ya'ni ish haqi fondi;

B) Daromad olgan jismoniy shaxslarning yoshi;

C) Daromad olgan jismoniy shaxslarning jinsi;

D) Byudjetga o'tkazilgan daromad solig'i.

8. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilishda uchastka soliq inspektorlari qanday ma'lumotlar beradi?

A) bir martalik ishlarni bajarishdan daromad olgan shaxslar haqida;

B) mulkini ijaraga berib daromad olmayotgan fuqarolar to'g'risida;

C) qat'iy belgilangan soliq ko'zda tutilgan har xil daromadlar oluvchi shaxslar haqida;

D) yakka tartibdagi tadbirkorlar haqida.

9. Korxonalar bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining prognozi qanday ko'rsatkichlar asosida ishlab chiqiladi?

A) umumiy ish haqi fondi;

B) eng kam ish haqi miqdori;

C) iqtisodiyotda band bo'lmagan aholining soni;

D) daromad solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lmaganlar soni.

10. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha tushumlarning yakuniy prognozini DSIning qaysi bo'limi amalga oshiradi?

A) Hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi;

B) Jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limi;

- C) Yuridik shaxslarga soliq solish bo‘limi;
- D) Kameral nazorat bo‘limi.

11. Jismoniy shaxslar daromadiga belgilangan soliq to‘lovchilari kimlar?

- A) Hisobot davrida soliq bazasiga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar.
- B) Oldingi yillarda daromad olgan shaxslar.
- C) Besh yil oldin daromad olgan shaxslar.
- D) Foyda solig‘i to‘lovchi jismoniy shaxslar.

12. Deklaratsiya bo‘yicha hisoblangan soliq qanday muddatda to‘lanishi zarur?

- A) Keyingi yilning 1 iyuniga qadar.
- B) Keyingi yilning 10 iyuniga qadar.
- C) Keyingi yilning 15 iyuniga qadar.
- D) Keyingi yilning 19 iyuniga qadar.

13. Jismoniy shaxslarning jami daromad tarkibiga kiritiluvchi daromad turini ko‘rsating:

- A) mulkiy daromad;
- B) ehtimolli daromad;
- C) yashrin daromad;
- D) favqulodda daromad.

14. Jismoniy shaxslar hisobot davrida olgan daromadlari to‘g‘risda deklaratsiyani qachon taqdim qilishlari zarur?

- A) Keyingi yilning 1 apreliga qadar.
- B) Keyingi yilning 12 apreliga qadar.
- C) Keyingi yilning 16 apreliga qadar.
- D) Keyingi yilning 17 apreliga qadar.

15. Jismoniy shaxning daromadi deb qaralmaydigan daromad turlaridan birini ko‘rsating:

- A) xizmat safari xarajatlari;
- B) ish haqi;
- C) dam olish xarajati;
- D) qo‘shimch ish haqi.

16. Dividendlar va foyizlar jismoniy shaxsning qanday daromad turiga mansub?

- A) mulkiy daromad;
- B) asosiy daromad;
- C) ish haqi;
- D) mukofot.

1-slayd

Jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- mulkiy daromadlar;
- moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- boshqa daromadlar.

2-slayd

t/r	Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari turlari
1.	foizlar
2.	dividendlar
3.	mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar
4.	jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar
5.	sanoat mulki obyektlariga, seleksiya yutug'iga berilgan patent (litsenziya) egasi bo'lgan jismoniy shaxsning patentdan boshqa shaxs foydasiga voz kechganda yoki litsenziya shartnomasi tuzganda olgan daromadi
6.	qimmatli qog'ozlarni realizatsiya qilishdan tushgan daromadlar va yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushini (payini) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar
7.	solliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'laganidan keyin xususiy korxona mulkdori hamda fermer xo'jaligi boshlig'i ixtiyorida qoladigan foyda summasi

Tayanch iboralar

1. O‘zbekiston Respublikasining rezidenti.
2. Grant.
3. To‘lov manbai.
4. Jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq solish obyekti.
5. Jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq solinadigan baza.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining prognoz ko‘rsatkichlarini shakllanishiga va amalda bajarilishiga ko‘plab omillar ta’sir qiladi. Ayrim omillar soliq tushumlarining o‘zgarishiga funksional ravishda bog‘langan bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qilishi mumkin. Shunday omillarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining soliq solish bazasi, soliq imtiyozlari va soliq stavkalari kiradi. Soliq solish bazasi mazkur soliq bo‘yicha prognoz tushumlari bilan yuqori ijobiy korrelyatsion bog‘lanishga ega hisoblanadi. Ya’ni soliq solish bazasining oshishi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlarini oshishiga olib keladi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha beriluvchi soliq imtiyozlari esa aksincha, prognoz ko‘rsatkichlarining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu ma’noda soliq imtiyozlari va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumining prognoz ko‘rsatkichi o‘rtasida teskari, kuchli korrelyatsion bog‘lanish mavjud deb xulosa qilishimiz mumkin.


«Kaskad» texnikasi Korporatsiya foyda solig‘i

Ushbu texnologiya g‘oyalar tizimini ishlab chiqishga ko‘mak beradi.
Asosiy maqsadi: aniq va ijodiy fikrlash qobiliyatini faollashtirish.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini prognoz qilishni tashkil qilish jarayonini tushuntirib berish.



Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini prognoz natijalariga ta’sir qiluvchi omillar to‘g‘risida aytib bering.



6-slayd

O'quv topshirig'i

«Blits-so'rov» savollari savol-javob vaqtida to'ldiriladi.

№	Savollar	Javoblar
1.	Jismoniy shaxslar hisobot davrida olgan daromadlari to'g'risda deklaratsiyani qachon taqdim qilishlari zarur?	
2.	Jismoniy shaxning daromadi deb qaralmaydigan daromad turlaridan birini ko'rsating.	
3.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha tushumlarning yakuniy prognozini DSIning qaysi bo'linmasi amalga oshiradi?	
4.	Korxonalar bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining prognozi qanday ko'rsatkichlar asosida ishlab chiqiladi?	
5.	1-T shakl "Mehnat hisoboti"dan daromad solig'i prognozi uchun qanday ma'lumotlar olinadi?	

3.10. Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlarini prognoz qilish tartiblari

Reja

1. Mol-mulk solig'i va ushbu soliq turi bo'yicha soliq tushumlarini prognoz qilish.
2. Yer solig'i bo'yicha soliq tushumlarini prognoz qilishning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq tushumlarini prognoz qilishda muhim hisoblangan asosiy ko'rsatkichlar va omillar.
4. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliq tushumlarini prognoz qilishda muhim hisoblangan asosiy ko'rsatkichlar va omillar.
5. Komaniyani reorganizatsiya qilish sharoitida mol-mulk bilan bog'liq soliq oqibatlari va ularni rejalashtirish. (Angliya tajribasi)

1-jadval

Yillar	Mol-mulk solig'ining o'sish sur'ati
1.	108,3
2.	111,8
3.	115,1
4.	118,5
5.	121,7
6.	124,7
7.	128
Jami	828,1

Quyida keltirilgan formuladan foydalanib, 1- jadval ma'lumotlari asosida mol-mulk solig'ining prognoz ko'rsatkichini aniqlang.

$$\begin{cases} nLgAo + LgA1 \sum t = Lgy \\ LgAo \sum t + LgA1 \sum t^2 = \sum tLgy \end{cases}$$

CASE-STUDY-1

2-jadval

Ko'rsatkichlar	2012	2013	2014	2015	2016
Mol-mulk solig'ining o'sish sur'ati, %da	101.2	103.1	102.4	107.6	108

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, mol-mulk solig'i bo'yicha soliq tushumining prognoz ko'rsatkichini hisoblang.

CASE-STUDY-2

3-jadval

Ko'rsatkichlar	2009	2010	2011	2012	2013
Mol-mulk solig'ining o'sish sur'ati, %da	109	111	114	116	110

3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, mol-mulk solig'i bo'yicha soliq tushumining prognoz ko'rsatkichini hisoblang.

TESTLAR

1. Mol-mulk solig'i obyektlaridan birini ko'rsating:

- A) asosiy vositalar;
- B) nomoddiy aktivlar;
- C) oborot mablag'lar;
- D) aksiyalar.

2. Tugallanmagan obyekt mol-mulk solig'i obyekt bo'lishi mumkinmi?

- A) bo'ladi;
- B) bo'lmaydi;
- C) tugallangandan keyin bo'ladi;
- D) sotish vaqtida soliqqa tortiladi.

3. Mol-mulk solig'ida soliqqa tortish bazasidan birini ko'rsating:

- A) asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati;
- B) asosiy vositalarning o'rtacha oylik qoldiq qiymati;
- C) asosiy vositalarning o'rtacha choraklik qoldiq qiymati;
- D) asosiy vositalarning o'rtacha to'qqiz oylik qoldiq qiymati.

4. Mol-mulk solig'i qaysi byudjetga tushadi?

- A) mahalliy byudjetga;
- B) respublika byudjetiga;
- C) maqsadli jamg'armaga;
- D) ijtimoiy fondga.

5. Lizingga olingan mulk qanday muddatga mulk solig'idan ozod qilingan?

- A) lizing shartnomasi amaldagi muddatda;
- B) lizing shartnomasi tugagandan keyin;
- C) balansdan o'chirgunga qadar;
- D) korxona likvidatsiya qilinunga qadar.

6. Mol-mulk solig'ining soliq davri qanday?

- A) kalendar yili;
- B) kalendar oyi;
- C) kalendar choragi;
- D) kalendar to'qqiz oyi.

7. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini prognoz qilish qanday ko'rsatkichlarga asoslanadi?

- A) mol-mulk solig'i tushumlari dinamikasiga;
- B) moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarga;
- C) mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar tarkibiga;
- D) foyda me'yoriga.

8. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini prognoz qilishda korxonalar shaxsiy kartochkalaridan qanday ma'lumotlar olinadi?

- A) mol-mulk solig'i bo'yicha hisoblab qo'yilgan joriy to'lovlar;
- B) asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati;
- C) nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qiymati;
- D) mol-mulk solig'i stavkasi miqdori.

9. Davlat soliq idoralarida mol-mulk solig'i prognozini ishlab chiqishda qaysi bo'limlar qatnashadi?

- A) jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limi;
- B) kadrlar bo'limi;

- C) buxgalteriya bo'limi;
- D) soliq to'lovchilarni ro'yxatga olish bo'limi.

10. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini prognoz qilish qanday ko'rsatkichlarga asoslanadi?

- A) soliq obyektlarining o'rnatilgan shartli qiymatiga;
- B) mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar tarkibiga;
- C) mol-mulkning joylashgan joyiga;
- D) mol-mulk egasining joylashgan joyiga.

11. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini prognoz qilishda soliqning yalpi bazasi qanday aniqlanadi?

- A) mulk solig'i obyektlarining inventar qiymatlari asosida;
- B) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati asosida;
- C) mahalliy hokimiyat tomonidan taqdim etiladigan qiymatlar asosida;
- D) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar boshlang'ich qiymati asosida.

12. Mol-mulk solig'i bo'yicha tushumlarni prognoz qilishda qaysi davlat idoralari tizimi qatnashadi?

- A) Moliya vazirligi va uning quyi idoralari;
- B) Vazirlar Mahkamasi;
- C) Davlat statistika idoralari;
- D) Davlat bojxona xizmati idoralari.

13. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini prognoz qilishda soliqning yalpi bazasi qanday aniqlanadi?

- A) korxonalarning asosiy vositalari va nomoddiy aktivlari yillik o'rtacha qoldiq qiymati asosida;
- B) mahalliy statistika idoralari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar asosida;
- C) mol-mulk solig'i obyektlarining inventar va shartli qiymatlari asosida;
- D) mahalliy hokimiyat tomonidan taqdim etiladigan qiymatlar asosida.

14. Mol-mulk solig'i bo'yicha joriy to'lovlarni hisoblab, korxonalarning shaxsiy kartochkalariga kiritish qachon va nimaga asoslanib amalga oshiriladi?

A) korxona tomonidan DSI ga joriy yilning 20 yanvarigacha taqdim etiladigan ma'lumotnoma asosida;

B) mas'ul davlat soliq inspektorlari tomonidan mustaqil ravishda har oyning 25 kunigacha;

C) Davlat soliq qo'mitasining maxsus ko'rsatmasi asosida har chorakning 20 sanasiga;

D) Davlat soliq qo'mitasining maxsus ko'rsatmasi asosida har chorakning 28 sanasiga.

15. Davlat soliq idoralarida mol-mulk solig'i bo'yicha umumiy tushumlar prognozini qaysi bo'lim amalga oshiradi?

A) hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi;

B) jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limi;

C) yuridik shaxslarga soliq solish bo'limi;

D) buxgalteriya.

1 - slayd

Mol-mulk takibidan kelib chiqqan holda yuridik shaxslarning mol-mulkalaridan olinadigan soliqning soliq solish bazasi:

a) asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati (shu jumladan, moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar);

b) nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati;

v) belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish ob'ektining o'rtacha yillik qiymati;

g) me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan uskunalarning o'rtacha yillik qiymati hisoblanadi.

2 – slayd

Ko'rsatkichlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015
Davlat byudjetining maqsadli jamg'armalarisiz jami daromadlari	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00	100
To'g'ri soliqlar	26,08	26,20	25,21	26,22	20,41	23,64

Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari	15,05	14,27	13,32	14,96	11,85	15,87
Mol-mulk solig'i	2,70	3,03	3,11	3,31	2,97	4,74
Yer solig'i	2,32	2,14	2,16	2,57	1,74	2,57
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	9,64	8,71	7,69	8,68	6,80	8,10
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,39	0,38	0,35	0,39	0,33	0,45

3 - slayd

2016 yilda yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari

T/r	To'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan %larda soliq stavkasi
1.	Yuridik shaxslar	5
2.	O'zi ishlab chiqargan tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportining erkin almashtiriladigan valyutadagi hissasi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksportchi korxonalar uchun (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 10 oktyabrdagi PF-1871 soni Farmoni bilan tasdiqlangan xom ashyo tovarlari ro'yxatidagilar bundan mustasno):	
	sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi
	sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori	belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi

4 - slayd

Yer solig'ini prognoz qilishda tahlil qilinuvchi asosiy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yer maydoni	Summa
Yer uchastkasining umumiy maydoni,	ga		x
Soliq solinmaydigan yer maydoni -	ga		x

Soliq solinadigan baza	ga		x
Yil uchun byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan jami soliq summasi	so‘m	x	
Shu jumladan:			
I chorak uchun – 15 fevralgacha	so‘m	x	
II chorak uchun – 15 maygacha	so‘m	x	
III chorak uchun – 15 avgustgacha	so‘m	x	
IV chorak uchun – 15 noyabrgacha	so‘m	x	

5 - slayd

Tayanch iboralar

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lovchilar.
Tugallanmagan qurilish obyektlari.
Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar.
Asosiy vositalarning qoldiq qiymati.
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq solish obyekti.
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ning soliq solinadigan bazasi.
Suv resurslarining yer usti manbalari.

6 - slayd

Nazorat savollari

1. Mol-mulk solig‘ida soliqqa tortish bazasidan birini ko‘rsating.
2. Mol-mulk solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlarni hisoblab, korxonalarining shaxsiy kartochkalariga kiritish qachon va nimaga asoslanib amalga oshiriladi?
3. Davlat soliq idoralarida mol-mulk solig‘i bo‘yicha umumiy tushumlar prognozini qaysi bo‘linma amalga oshiradi?
4. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini prognoz qilish qanday ko‘rsatkichlarga asoslanadi?
5. Yer solig‘ini prognoz qilish qanday ko‘rsatkichlarga asoslanadi?
6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni prognoz qilish qanday ko‘rsatkichlarga asoslanadi?

3.11. Soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibidagi soliqlarni prognoz qilish

Reja

1. Soddalashtirilgan soliq tizimida mavjud soliqlar tarkibi va uni qo'llashni o'ziga xos xususiyati.
2. Yagona soliq to'lovi va uni prognoz qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumot manbalari.
3. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq va uni prognoz qilishning ayrim farqli jihatlar.
4. Yagona yer solig'i va soliq tushumlarini prognoz qilish usullari.
5. Kichik biznes subyektlarini reorganizatsiya qilishda soliqlarni rejalashtirish (Angliya tajribasi).

1-jadval

Undirilgan yagona yer solig'i va uning soliq solish bazasi	2005 yilda haqiqatda undirilgan yagona yer solig'ining miqdori, mln.so'mda	2006 yilda haqiqatda undirilgan yagona yer solig'ining miqdori		2007 yilda haqiqatda undirilgan yagona yer solig'ining miqdori	
		mutloq miqdori	2008yilga nisbatan o'sish sur'ati,koef.da	mutloq miqdori	2009 yilga nisbatan o'sish sur'ati,koef.da
Yagona yer solig'ining soliq solish obyekti(er maydoni,ga)	625	640		670	
Undirilgan yer solig'ining miqdori,mln.so'mda	490,8	519,7		545,8	

2-jadval

2008 yilda haqiqatda undirilgan yagona yer solig'ining miqdori		2009 yilda haqiqatda undirilgan yagona yer solig'ining miqdori		2010 yilda haqiqatda undirilgan yagona yer solig'ining miqdori		Prognozlashtirilayotgan yilda kutilayotgan undirilgan yagona yer solig'ining miqdori	
mutloq miqdori	2010 yilga nisbatan o'sish sur'ati, koef.da	mutloq miqdori	2011 yilga nisbatan o'sish sur'ati, koef.da	mutloq miqdori	2012 yilga nisbatan o'sish sur'ati, koef.da	Besh yillik o'sish sur'atlari-ning yig'indisi	2013 yilga nisbatan kutilayotgan o'sish sur'ati, koef.da

702		720		760			
571,5		856		603,2			

1 va 2- jadval ma'lumotlari asosida yagona yer solig'i bo'yicha soliq tushumini prognozlashtiring.

CASE-STUDY-1

3-jadval

Ko'rsatkichlar	2011	2012	2013	2014	2015
Yagona yer solig'ining o'sish sur'ati, %da	109,3	112.1	108.4	114.5	108

3- jadvalda keltirilgan ma'lumlardan foydalanib, yagona yer solig'i bo'yicha soliq tushumining prognoz ko'rsatkichini hisoblang.

CASE-STUDY-2

4-jadval

Ko'rsatkichlar	2011	2012	2013	2014	2015
Yagona yer solig'ining o'sish sur'ati, %da	103,5	108,6	109,8	107,6	110

4- jadvalda keltirilgan ma'lumlardan foydalanib yagona yer solig'i bo'yicha soliq tushumini prognoz ko'rsatkichini hisoblang.

TESTLAR

1. Soliqqa tortishning soddalashtirigan tartibi tarkibiga kiruvchi soliq turlaridan birini ko'rsating.

- A) Yagona soliq to'lovi;
- B) Foyda solig'i;
- C) yer solig'i;
- D) Mol-mulk solig'i.

2. Yagona soliq to'lovi soliq to'lash tartibiga o'tishning asosiy mezonini nimadan iborat?

- A) o'rtacha yillik ishchilar sonidan;
- B) o'rtacha choraklik ishchilar sonidan;

- C) oʻrtacha oylik ishchilar sonidan;
- D) oʻrtacha toʻqqiz oylik ishchilar sonidan.

3. Yagona soliq toʻlovi soliq toʻlovchilari qaysi soliq turini qoʻshimcha toʻlaydilar?

- A) aksiz soligʻini;
- B) mol-mulk soligʻini;
- C) foyda soligʻini;
- D) mahalliy soliqlarni.

4. Yagona soliq toʻlovi soliq toʻlovchilaridan birini koʻrsating.

- A) savdo korxonalari;
- B) Birlashgan Millatlar Tashkiloti;
- C) notijorat tashkilotlari;
- D) diniy tashkilotlar.

5. Savdo korxonalari yagona soliq toʻlovi tizimiga oʻtish uchun nechta ishchi yollashlari zarur?

- A) cheklanmagan;
- B) cheklangan;
- C) 100 nafar ishchi;
- D) 50 nafar ishchi.

6. Yagona soliq toʻlovida soliq obyekti nimadan iborat?

- A) yalpi tushum;
- B) ish haqi fondi;
- C) ammortizatsiya fondi;
- D) rekonstruksiya fondi.

7. Resurs toʻlovlari boʻyicha tushumlarni prognoz qilishda tahlil qaysi soliqlar yoki toʻlovlar boʻyicha olib boriladi?

- A) yer soligʻi;
- B) aksiz soligʻi;
- C) qoʻshilgan qiymat soligʻi;
- D) yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻi.

8. Ayrim mahsulot turlari bo'yicha yuqori foydaga soliq tushumlari hisobi soliq idoralarining qaysi bo'g'inida yuritiladi?

- A) Davlat soliq qo'mitasida;
- B) Davlat soliq boshqarmalarida;
- C) Davlat soliq inspeksiyalarida;
- D) soliq masalatchisi olib boradi.

9. Ayrim monopol mahsulot turlari bo'yicha yuqori foydaga soliq nechanchi yildan kiritildi?

- A) 2007 yil;
- B) 2006 yil;
- C) 2005 yil;
- D) 2004 yil.

10. Yer solig'i bo'yicha tushumlar 1-N hisobotida qanday tasniflanadi?

- A) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun yuridik shaxslarning yer solig'i;
- B) zonalar bo'yicha yuridik shaxslarning yer solig'i;
- C) shahar joylarida undiriladigan yer solig'i;
- D) tumanlarda undiriladigan yer solig'i.

11. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq tushumlari 1-N hisobotida qanday tasniflanadi?

- A) elektrostantsiyalar va kommunal xizmat korxonalarining suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig'i;
- B) jismoniy shaxslarning suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig'i;
- C) notijorat tashkilotlarining suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig'i;
- D) soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslarning suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig'i.

12. Davlat soliq idoralarida yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha birlamchi prognozni qaysi bo'linma amalga oshiradi?

- A) yuridik shaxslarga soliq solish bo'limi;
- B) jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limi;
- C) hisobga olish, taxlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsa-

tish bo‘limi;

D) buxgalteriya.

13. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq salohiyati katta bo‘lgan hududlarni ko‘rsating:

A) Navoiy, Qashqadaryo viloyatlari;

B) Surxondaryo viloyati, Toshkent shahri;

C) Xorazm, Namangan viloyatlari;

D) Jizzax, Andijon viloyatlari.

14. Davlat soliq idoralarida yer solig‘i bo‘yicha umumiy tushumlar prognozini qaysi bo‘lim amalga oshiradi:

A) hisobga olish, tahlil qilish, ma’lumotlar bazasiga xizmat ko‘rsatish bo‘limi;

B) jismoniy shaxslarga soliq solish bo‘limi;

C) yuridik shaxslarga soliq solish bo‘limi;

D) kadrlar bo‘limi.

15. Soliq tushumlarining katta qismini ta’minlaydigan yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq obykti bo‘lgan foydali qazilmalarni ko‘rsating:

A) oltin, kumush, tozalangan mis;

B) kaliy tuzi, ko‘mir, temir;

C) kaliy tuzi, fosforitlar, tabiiy grafit;

D) neft, fosforitlar.

1-slayd

FSMU jadvali

Janubiy Koreya Respublikasi soliq tizimidagi o‘ziga xos muam-molar va ularni hal qilish usullari.

F (Fikringizni bayon eting).
S (Fikringiz bayoniga biror sabab ko‘rsating).
M (Ko‘rsatilgan sababga tushuntiruvchi misol keltiring).
U (Fikringizni umumlashtiring).

Mavzu bo'yicha bilimlarni dolzarblashtiruvchi savol

Yagona soliq to'lovini prognozlashda mavjud muammolar va ularning yechimi.

Yo'naltiruvchi savollar

1. Yagona soliq to'lovini prognozlashda zarur ma'lumotlarni yig'ish muammosi nimalardan iborat?

2. Yagona yer solig'ini prognozlashda mavjud muammolar va ularning yechimi.

1-muammo. Yagona yer solig'ini prognozlashda usulni tanlash muammosi nimaga bog'liq?

3. Qat'iy belgilangan soliq tushumlarini prognozlashda qanday ma'lumotlardan foydalaniladi? Ma'lumotning haqqoniyligi qanday ta'minlanadi?

3.12. Byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga majburiy to'lovlarni prognoz qilish tartibi

Reja

1. Mahalliy yig'mlar, ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar tarkibi va majburiy to'lovlarni to'lovchilari, ularning soni o'zgarishining tushumlarga ta'siri.

2. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlarni prognoz qilish usullari.

3. Respublika Yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar, ular haqidagi ma'lumotlarni jamlash va ulardan prognoz qilishda foydalanish.

4. Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar va uni prognoz qilishning o'ziga xos xususiyatlari.

5. Daromad prognozining aniqligi va daromadning o'zgaruvchanligi (AQSh misolida).

CASE-STUDY-1

1-jadval

Ko'rsatkichlar	2011	2012	2013	2014	2015
Yagona ijtimoiy to'lovning o'sish sur'ati, %da	108,3	110.1	111.4	113.5	114

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha prognoz ko'rsatkichini hisoblang.

CASE-STUDY-2

2-jadval

Ko'rsatkichlar	2011	2012	2013	2014	2015
Yagona ijtimoiy to'lovning o'sish sur'ati, %da	111,5	113,6	114,8	116,6	117

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha prognoz ko'rsatkichini hisoblang.

TESTLAR

1. Yo'l fondiga to'lanuvchi yig'im turlaridan birini ko'rsating:

- A) Respublika hududiga kirganligi uchun yig'im;
- B) yo'lni ta'mirlash uchun yig'im;
- C) Yo'l fondiga bonus to'lovlari;
- D) Yo'l fondiga resurs to'lovi.

2. O'zbekiston hududiga vaqtincha kiritilgan avtotransport vositasi uchun yig'imning soliqqa tortish bazasi nimadan iborat?

- A) Avtotransport vositasining ot kuchidan;
- B) Avtotransport vositasining gabaritidan;
- C) Avtotransport vositasining bagaj qismidan;
- D) Avtotransport vositasining modelidan.

3. Yo'l fondiga yig'im to'lash muddatlaridan birini ko'rsating:

- A) avtotransport vositasini mulkiga olish vaqtida;
- B) avtotransport vositasini ta'mirlash vaqtida;
- C) avtotransport vositasining ekspluatatsiyasi vaqtida;
- D) avtotransport vositasini hisobdan o'chirish vaqtida.

4. Qaysi turdagi mikrofirmalar va kichik korxonalar pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmadan ozod qilingan?

- A) umumiy belgilangan tartibda soliq to'lovchi hisoblangan kichik korxona va mikrofirmalar;
- B) Banklar;
- C) foyda solig'i to'lovchilari;
- D) mol-mulk solig'ini to'lovchilar.

5. Yagona ijtimoiy to'lovning soliq obyektiga nimalar kiradi:

- A) mehnat haqi ko'rinishidagi daromad;
- B) asosiy vositalar;
- C) nomoddiy aktivlar;
- D) oborot mablag'lar.

6. Pensiya jamg'armalariga to'lovlarni prognozlashda qo'llaniladigan usullardan birini ko'rsating:

- A) Ehtimollar nazariyasi usullari;
- B) Asosiy vositalarni qayta baholash;
- C) Nomoddiy aktivlarni qayta baholash;
- D) Oborot mablag'larni qayta baholash.

7. Quyidagilardan qaysi biri soliq organlarining yig'ma hisoboti hisoblanmaydi?

- A) "1T-shakl" hisoboti;
- B) "1NN-shakl" hisoboti;
- C) "2N-shakl" hisoboti;
- D) "1N-shakl" hisoboti.

8. Soliq organlarining "1N-shakl" yig'ma hisobotida qanday ma'lumotlar keltiriladi?

- A) soliqlar bo'yicha prognoz va tushumlar;
- B) soliqlar bo'yicha boqimanda va ortiqcha to'lovlar;

- C) soliq nazorati natijalari;
- D) soliq tekshiruv natijalari.

9. Soliq organlarining “2N-shakl” yig‘ma hisobotida qanday ma’lumotlar keltiriladi?

- A) soliq qarzdorliklari;
- B) soliq nazorati natijalari;
- C) soliqlar bo‘yicha tushumlar;
- D) soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari.

10. Soliq organlari “2N-shakl” yig‘ma hisobotining necha xil turi mavjud?

- A) 2 xil: to‘liq, qisqartirilgan;
- B) 3 xil: oylik, choraklik, yillik;
- C) 4 xil: oylik, choraklik, yarim yillik, 9 oylik;
- D) bir xil.

11. Soliq organlarining “1NN-shakl” yig‘ma hisobotida qanday ma’lumotlar keltiriladi?

- A) vazirliklar bo‘yicha soliq to‘lovchilar soni;
- B) soliqlar bo‘yicha prognoz va tushumlar;
- C) sanalar bo‘yicha tekshirilgan korxonalar soni;
- D) soliqlar bo‘yicha boqimanda va ortiqcha to‘lovlar.

12. “2N-shakl (to‘liq)” yig‘ma hisoboti nechta bo‘limdan iborat bo‘ladi?

- A) 5 ta;
- B) 3 ta;
- C) 10 ta;
- D) 4 ta.

13. “2N-shakl (to‘liq)” yig‘ma hisobotida 2-bo‘lim jadvallari-ning asosiy bloklari qanday nomlanadi?

- A) Davlat mulkidagi korxonalar; jamoa mulki shaklidagi korxonalar, xususiy mulk shaklidagi korxonalar;
- B) tog‘-kon sanoati korxonalari, neft-gaz sohasi korxonalari, elektroenergetika tarmog‘i korxonalari.
- C) sanoat korxonalari, qurilish tashkilotlari, qishloq xo‘jaligi korxonalari, transport tashkilotlari.

D) Diniy tashkilotlar, vazirliklar, soliq idoralari.

14. “2N-shakl (to‘liq)” yig‘ma hisobotining 4-bo‘limida qanday ma’lumotlar keltiriladi?

- A) soliq idoralariga qilingan murojatlar;
- B) hisobot davridagi haqiqiy tushumlar;
- C) hisobot davrida o‘tkazilgan tekshirishlar;
- D) yuridik shaxslarni soliqqa tortish bo‘limida ishlovich xodimlar soni.

15. “1NN-shakl” yig‘ma hisobotining qanday turlari mavjud?

- A) korxonalar, ularning maqomi va holati bo‘yicha tuziladigan;
- B) korxonalar, ularning ustav kapitali;
- C) korxonalar, ularning obort mablag‘lari;
- D) korxonalar, ularning passivlari.

16. Tuzilish shakliga ko‘ra soliq idoralari yig‘ma hisobotlari-ning qanday turlari mavjud?

- A) qat’iy (tasdiqlangan) va ixtiyoriy shaklda tuziladigan;
- B) DSQ tomonidan tuziladigan va DSB tomonidan tuziladigan;
- C) yilda bir marta tuziladigan, chorakda bir marta tuziladigan;
- D) da’volar hisoboti, yilda ikki marta tuziladi.

1-slayd

Ma’ruza-anjumanda taqdim etiladigan mavzular

1. O‘zbekiston Respublikasi Yo‘l fondining daromadini prognozlashning o‘ziga xos jihatlari.
2. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar yalpi soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari.
3. Yagona ijtimoiy to‘lovni prognozlashda tahlil qilinuvchi asosiy ko‘rsatkichlar.

Nazorat savollari

1. Pensiya jamg'armalariga to'lovlarni prognozlashda qo'llaniladigan usullar haqida gaprib bering.
2. Soliq organlarining "1N-shakl" yig'ma hisobotida qanday ma'lumotlar keltiriladi?
3. Yagona ijtimoiy to'lovning soliq obyektiga nimalar kiradi?
4. Yo'l fondiga to'lanuvchi yig'im turlari.

Tayanch ibora va tushunchalar

1. Fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini to'lovchilardir.
 2. Yagona ijtimoiy to'lovning va sug'urta badallarining soliq solish obyekti.
 3. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilari.
 4. Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi.
 5. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarining hisob-kitobini topshirish muddati.
 6. Respublika Yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash muddatlari.
- Respublika Yo'l jamg'armasi yig'imlari.

4. "Soliq statistikasi va prognozi" fanidan umumiy savollar

1. "Soliq statistikasi va prognozi" fanining predmeti va vazifalari.
2. Byudjet daromadlarini shakllantirish, iqtisodiyotdagi nomutanosiblikni bartaraf etishda tahlil natijalaridan foydalanish.
3. Soliqqa tortish bazasi elementlariga ta'sir etuvchi omillar.
4. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar bazasini aniqlashning o'ziga xosligi.
5. Hududlar, korxonalar soliq turlari bo'yicha yig'ma jadvallar tuzish.
6. Soliqlarni prognoz qilishda yig'ma jadvallarning mazmuni va uni tuzishdan maqsad.

7. Aksiz solig'i tushumlarini prognoz qilish.
8. Umumiy tushumlar hisobi.
9. Turli faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalarda soliqqa tortiladigan baza va o'rtacha soliq stavkasini aniqlashning zarurligi.
10. Qo'shilgan qiymat solig'ini prognoz qilishda unga ta'sir qiluvchi omillar.
11. Umumdavlat soliqlari va mahalliy soliqlar.
12. Prognoz davri va prognoz turlari.
13. Prognozga ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillar.
14. Soliq to'lovchilarning guruhlanishi.
15. Prognozlashda iqtisodiy xususiyatlarni hisobga olish.
16. Tadbirkorlik turlarining prognoz aniqligiga ta'siri.
17. Soliqlarni prognoz qilishda soliq to'lovchilarni guruhlash.
18. To'g'ri va egri soliqlarning korxonalar faoliyatiga ta'siri tahlili.
19. Jismoniy shaxslar daromad solig'ini prognozlash ko'rsatkichlari tarkibi.
20. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari va tamoyillari (soliq tizimi, soliq siyosati, soliq strategiyasi va taktikasi).
21. Prognozlashda iqtisodiy xususiyatlarni hisobga olish (moliyaviy ko'rsatkichlar, iqtisodiy ko'rsatkichlar, hududning boshqa ko'rsatkichlari).
22. Prognoz turlari (iqtisodiy, ijtimoiy).
23. Soliqqa tortiladigan baza va uni aniqlash usullari (soliq obyekti, soliq subyekti, soliq stavkalari).
24. Davlat byudjeti va mahalliy byudjetlar tarkibi (daromadlar, xarajatlar, taqchillik).
25. Jismoniy shaxslarning soliq tushumlari.
26. Soliq tushumlarini prognozlash asosida yig'ma jadval tuzish.
27. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining tarkibiy tuzilishi (soliq turlari, davlat byudjeti, daromadlar, xarajatlar).
28. Soliq imtiyozlarining foyda solig'i prognoziga ta'siri (soliqqa tortiladigan baza, sof foyda).
29. Soliq inspeksiylarida prognoz bo'limi ishlarini tashkil etish.
30. Prognoz hisoblari uchun asos bo'luvchi manbalar.
31. Yig'ma jadvallarning turlari.
32. Mol-mulk solig'ini hisoblash tartibi, to'lash muddati, stavkasi (soliq stavkasi, imtiyozlar).
33. Prognozga soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarning ta'siri.
34. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar

to'laydigan soliqlar bazasini aniqlashning o'ziga xosligi (soliq solinadigan baza, majburiy to'lovlar, chiqimlar).

35. Hududlar, korxonalar, soliq turli bo'yicha yig'ma jadvallar tuzish.
36. Foyda solig'ini prognoz qilish.
37. Prognoz summasining ehtimollik darajasi.
38. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'ini prognoz qilish.
39. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining tarkibiy tuzilishi.
40. Soliqqa tortish bazasi elementlariga ta'sir etuvchi omillar.
41. Mol-mulk solig'ini prognoz qilish.
42. Yer solig'ini prognoz qilishning o'ziga xosligi.
43. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq statistikasi va prognozi tartibi.
44. To'g'ri va egri soliqlarning iqtisodiy mohiyati.
45. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i (soliq obyekti, hisoblash va to'lash muddatlari).
46. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilish.
47. Soliq turlari bo'yicha prognozlash.
48. 1-N jadvali to'g'risida ma'lumot.
49. 2-N yig'ma jadvalining o'ziga xos xususiyati.
50. Soliqlar va to'lovlar bo'yicha tushumlarni prognozlash.
51. Soliqni prognozlash uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar va ularning tarkibi (iqtisodiy ko'rsatkichlar, soliq obyekti).
52. Soliq to'lovchilarning guruhlanishi (yuridik shaxs, soliqlar tarkibi, daromad).
53. Soliq imtiyozlarining foyda solig'i prognoziga ta'siri (soliqqa tortiladigan baza, sof foyda).
54. Prognozlashda iqtisodiy xususiyatlarni hisobga olish (iqtisodiy axborot tizimlari, birlashtirilgan soliqlar).
55. Tadbirkorlik turlarining prognoz aniqligiga ta'siri (iqtisodiy - ijtimoiy prognoz).
56. Soliqqa tortish bazasi elementlariga ta'sir etuvchi omillar (soliq subyekti, obyekti).
57. Davlat byudjeti va mahalliy byudjetlar tarkibi (daromad, xarajat, taqchillik).
58. Tadbirkorlik turlarining prognoz aniqligiga ta'siri (iqtisodiyotni boshqarish usullari, iqtisodiy ko'rsatkichlar).
59. Tadbirkorlik turlarining prognoz aniqligiga ta'siri (iqtisodiyotni

boshqarish usullari, iqtisodiy ko'rsatkichlar).

60. Qo'shilgan qiymat solig'ini prognoz qilishda unga ta'sir qiluvchi omillar (soliq stavkasi, nolli stavka).

61. Soliqqa tortiladigan bazani aniqlashning usullari (soliq asosi, soliqli to'lovlar, soliqqa tortiladigan baza).

62. Soliq turlari bo'yicha prognozlash (ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy texnikaviy).

63. "Soliq statistikasi va prognozi" fanining davlat soliq xizmati uchun mutaxassislar tayyorlashdagi roli.

64. 2-N yig'ma jadvalining xususiyati.

65. To'g'ri hisob-kitob usuli.

66. Statistik qayta ishlash usuli.

67. Prognoz hisob-kitoblarini taqdim etish muddatlari.

68. Prognoz qilish tartibi.

69. Xo'jalik subyektlari miqyosida statistik ko'rsatkichlar bo'yicha prognoz hisob-kitobi.

70. O'rtacha o'sish koeffitsiyenti.

71. O'rtacha xarajatlar koeffitsiyenti.

72. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida prognoz qilish.

73. Soliqlar tushumini prognozlashning asosiy vazifalari.

74. Prognozashtirishning hisoblash usullari.

75. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni prognozashtirish.

76. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini prognozashtirish.

77. Yuridik shaxslar mol-mulk solig'ini prognozashtirish.

78. Yagona soliq to'lovini prognozashtirish.

79. Yig'imga tushumini prognozashtirish.

80. Davlat byudjeti daromadlarini prognozashtirish va tushumlarni tahlil qilishda qo'llaniladigan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.

81. Jismoniy shaxslar tomonidan transport vositalari uchun iste'mol qilinadigan benzin va dizel yoqilg'isi va gaz uchun soliqni prognozashtirish.

82. Prognoz hisoblarining normativ asoslari.

83. Aniq soliq to'lovchilar bo'yicha tushumlarni prognozlash.

84. Yig'ib olinuvchanlik darajasi va uni tahlil etish.

85. Prognoz ko'rsatkichlari bajarilishiga boqimanda summalarining ta'siri.

5. GLOSSARIY

ATAMANING NOMLANISHI			Atamaning ma'nosi
O'zbek tilida nomlanishi	Ingliz tilida nomlanishi	Rus tilida nomlanishi	
“Soliq statistikasi va prognozi” fanining predmeti	The subject of discipline "Tax Statistics and Forecasting"	Предмет дисциплины «Налоговая статистика и прогнозирование»	“Soliq statistikasi va prognozi” fanining predmeti , jami tasodifi hodisa va voqealarni, ularga ta'sir etuvchi omillarini o'rganish hisoblanadi. Soliq va boshqa majburiy tushumlarga oid statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, prognoz ko'rsatkichlarni shakllantirish, belgilangan prognoz ko'rsatkichlarning bajarilishini ta'minlash, soliq tushumlari va boshqa majburiy to'lovlarning Davlat soliq idoralarida hisobga olish jarayonlarini o'rganish mazkur fanning predmeti mohiyatini yanada kengroq ochadi.
“Prognozlash”	"Forecasting"	«Прогнозирование»	Prognozlash - bu obyektning yoki hodisani kelajakdagi me'yoriy yoki maqbul holatlari, ularga erishish va ularni ro'yobga chiqarishning muqobil yo'llari to'g'risidagi ehtimolga yaqin tasavvurni ishlab chiqish. Prognozlash oldindan ko'rish shakli bo'lib, ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va rejalarni ishlab chiqishdan oldin amalga oshiriladi.
Prognozni rejadan farqi	The difference between the forecast and planning.	Отличие прогноза от планирования.	Prognozashtirish rejalashtirishdan farqli ravishda ishlab chiqilgan prognozni bevosita amaliyotga tatbiq etish vazifasini oldiga qo'ymaydi. Prognozlarning tegishli o'zgarishlarni oldindan ko'rishni o'zida aks ettiradi.
Gipoteza	Hypothesis	Гипотеза	Gipoteza – umumiy nazariya darajasidagi ilmiy asoslangan oldindan ko'rish. Ya'ni, ro'y berishi yoki bermasligi mumkin bo'lgan hodisani rivojlanishi haqida xulosa qilish. Gipotezaning asosini

			teoriya, qonuniyatlar, sabab – oqibat bog‘lanishlar tashkil qiladi. Gipoteza yordamida umumiy qonuniyatlarning sifat xarakteristikalarini beriladi.
Reja	Plan	План	Reja – maqsadning aniq qo‘yilishi, tadqiqot qilinayotgan obyektning holati haqidagi aniq mulohaza qilinishi. Unda rivojlanish yo‘llari va vositalari qo‘yilgan vazifaga mos holda ko‘rsatiladi. Rejada qabul qilingan boshqaruv qarori asoslanadi. Uning asosiy farqli jihati - aniqlik va direktivlik.
Eng kichik kvadratlar usuli	Least square method	Метод наименьших квадратов	Eng kichik kvadratlar usulining mohiyati shundan iboratki, vaqt qatoridagi dastlabki nuqtadan cheklanishni minimallashtiruvchi trend modelini parametrlarini topish.
Eksponeziyal silliqdash usuli	The method of exponential smoothing	Метод экспоненциального сглаживания	Prognostlashning juda samarali va ishonchli usuli hisoblanadi. Uning yutug‘i shundaki, unda dastlabki ma’lumotlarning og‘rliqi hisobga olinadi, oxirgi kuzatuv vaqtida yuzaga kelgan qonuniyat inobatga olinadi.
Trend	Trend	Тренд	Tasoddiy hodisadan holi bo‘lgan, vaqt bo‘yicha harakatning asosiy qonuniyati xarakteristikasini anglatadi.
Retrospeksiya	Retrospection	Ретроспекция	Prognostlash obyektining rivojlanish tarixi tadqiq qilinadi, zarur bo‘lgan axborot, manbalar to‘planadi va qayta ishlanadi, axborotlarni va taqdim qilish usullari optimallashtiriladi, prognostlash obyektining tuzilmasi va xususiyatlari tarkibi aniqlanadi.
Diagnoz	Diagnosis	Диагноз	Prognostlash obyektining rivojlanish tamoyillari aniqlanadi, prognostlash usuli va modeli tanlanib, tahlil qilinadi.

Prospeksiya	Prospection	Проспекция	Diagnoz ma'lumotlari asosida obyektning rivojlanish prognozlarining aniqligi, to'g'riligi, asoslanganligi baholanadi, obyekt modeliga yangi kelgan axborotga muvofiq tuzatish kiritiladi.
Prognozlash obyektlarining baholash asosi	Evaluation of forecasting object	Оценка объекта прогнозирования	Determinatsiyalik va noaniqlik jihatlari qo'shilib ketishiga asoslanadi. Ularning biri bo'lmasa, u ma'nosini yo'qotadi. Mutloq determinizm holatida qarorlarni muqobillik asosida tanlab olish imkoniyati yo'qoladi. Mutloq noaniqlik holatida kelajakni aniq tasavvur etish bo'lmaydi.
Formallashtirilgan metodlar	Formal methods	Формализованные методы	Formallashtirilgan metodlar: - ekstropolatsiya; - korrelyatsiya va regressiya tahlili usuli; - matematik modelashtirish usuli.
Kollektiv ekspert baholari metodi	Collective methods	Коллективные методы	Kollektiv ekspert baholari metodi: - Komissiyalar metodi; - "Delfi" modeli; - Kollektiv bo'lib g'oyalar yaratish metodi(aqliy hujum).
Individual ekspert baholari metodi	Individual methods	Индивидуальные методы	Individual ekspert baholari metodi: - "Interv'y" metodi; - Tahliliy metod; - Ssenariy tuzish.
Soliq hisoboti	Tax reporting	Налоговая отчетность	Soliq hisoboti soliq to'lovchining soliq va boshqa majburiy to'lovning har bir turi bo'yicha yoki to'langan daromadlar bo'yicha hisob-kitoblarni hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek, hisob-kitoblarga va soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o'z ichiga oladigan hujjati.

Soliqlarni hisoblash jarayoni	The process of calculating taxes	Процесс исчисления налогов	Soliqlarni hisoblash jarayoni besh bosqichdan iborat: soliq obyektini aniqlash; soliq solish bazasini aniqlash; soliq stavkasini aniqlash; soliq imtiyozini qo'llash; soliqni hisoblash.
Soliq solish obyektlarini to'g'ridan-to'g'ri hisobga olish usuli	Direct methods of accounting objects of taxation	Прямые методы учета объектов налогообложения	To'g'ridan-to'g'ri hisobga olish usuli qo'llanilganda daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa obyektlari yoki soliq solish bilan bog'liq obyektlar faoliyatning qaysi turi amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lsa, shu turga kiritiladi.
Hisoblash usuli	Accrual method	Метод начисления	Hisoblash usulida daromad va xarajatlar ish bajarilgan, xizmat ko'rsatilgan, tovar orilgan va mulk qabul qilingan sanada hisobga olinadi.
Deklaratsiya asosida soliqqa tortiladigan O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining daromadlari	Income residents of the Republic of Uzbekistan, taxable on the basis of the declaration.	Доходы резидентов Республики Узбекистан, облагаемые на основании декларации.	Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining quyidagi daromadlari kiradi: mulkiy daromadlar, agar bu daromadlarga to'lov manbaida soliq solinmagan bo'lsa; fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar; asosiy bo'lmagan ish joyidan olingan moddiy naf tarzidagi daromadlar; ikki yoki undan ko'p manbadan olingan soliq solinadigan daromadlar; O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar; soliq agentlari bo'lmagan manbalardan olingan daromadlar.
Soliq elementlari	Tax items	Элементы налогов	Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari quyidagilardir:

			soliq solish obyekti; soliq solinadigan baza; stavka; hisoblab chiqarish tartibi; soliq davri; soliq hisobotini taqdim etish tartibi; to'lash tartibi.
Soliq solish bazasi	The tax base	Налогооблагаемая база	Soliq solinadigan baza soliq solish obyektining soliq yoki boshqa majburiy to'lovning stavkasi tatbiqan belgilangan ko'rsatkichlardagi qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiflarini ifodalaydi.
Soliq stavkasi	Tax rate	Налоговая ставка	Stavka soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.
Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar	Incentives on taxes and other obligatory payments	Льготы по налогам и другим обязательным платежам	Boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga beriladigan afzalliklar, shu jumladan soliq va (yoki) boshqa majburiy to'lov to'lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar deb e'tirof etiladi.
Davlat byudjetini daromad qismini prognozlash maqsadi	The purpose of budgetary forecasting	Цель бюджетного прогнозирования	Davlat byudjetini daromad qismini prognozlash deganda byudjetning barcha daromad manbalari bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, soliq tizimi va soliq mexanizmining kelajagi bilan bog'liq qarorlarni ishlab chiqish tushuniladi. Prognozlash jarayonida soliq siyosatining konsepsiyasi ishlab chiqiladi.
Byudjet daromadlari	Budget revenues	Доходы бюджета	Davlat Hokimiyati va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining ixtiyoriga,

			O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan, qaytarmaslik sharti bilan kelib tushuvchi pul mablag'lari
Daromadlarni prognozlashtirish jarayoni	The process of forecasting revenues	Процесс прогнозирования доходов	Davlat byudjetining daromad qismini prognozlashtirish jarayoni O'zbekiston Respublikasi soliq va byudjet qonunchiligi normalari asosida tashkil qilinadi. Daromadlarni prognozlashtirish- davlatning soliq va byudjet siyosatining muhim elementi hisoblanadi.
Regressiv va korrelyatsion usullar	Regression and correlation methods.	Регрессивные и корреляционные методы.	Regressiv va korrelyatsion usullar soliq xizmatini xarakterlovchi guruhlar o'rtasidagi iqtisodiy manfaatlarni, bog'lanishni aniqlash uchun foydalaniladi.
Prognozlashtirish usullari	Forecasting methods	Методы прогнозирования.	Prognozlashtirilayotgan obyektning ichki va tashqi aloqalari haqidagi retrospektiv ma'lumotlarni tahlili asosida prognoz obyektining kelajakdagi rivojlanishiga ilmiy asoslangan holda baho berish usullari majmuasi.
Statistik usullar	Statistical methods	Статистические методы	Prognoz qilinayotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning o'zaro aloqalarida, dinamikasida, tarkibida mavjud sonli qonuniyatlarni aniqlashga yo'naltirilgan, ma'lumotlarni qayta ishlash usullari.
Ekstrapolyatsiya usuli	Extrapolation method	Метод экстраполяция	Ekstrapolyatsiya – bu o'tgan davrlarga aloqador bo'lgan tendensiyalarni ilmiy tadqiq qilib, aniqlangan tendensiyalardan prognoz obyektini kelajakdagi holatiga baho berishda foydalaniladi.
Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati	The obligation to pay taxes and other obligatory payments	Обязательство по уплате налогов и других обязательных платежей	Soliq to'lovchining muayyan soliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash, shuningdek, mavjud soliq qarzini uzish majburiyati soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati deb hisoblanadi.

Soliq qarzini to'lashni kechiktirish	Deferral or payment by installments of tax debt	Отсрочка или рассрочка уплаты налоговой задолженности	Soliq qarzini to'lashni kechiktirish vaqtinchalik moliyaviy qiyinchilikka ega bo'lgan korxonalarga davlat tomonidan yordam ko'rsatish maqsadida to'lash muddatini soliq to'lovchi qarz summasini bir yo'la yoki bosqichma-bosqich to'lagan holda keyinroq muddatga ko'chirishdan iboratdir.
Ortiqcha to'langan soliq summasi	The amount of overpaid tax	Сумма излишне уплаченного налога	Soliqning byudjetga to'langan hamda to'lash uchun hisoblangan summasi o'rtasidagi ijobiy farq soliqning ortiqcha to'langan summasi deb e'tirof etiladi.
Soliq qarzini majburiy undirish choralari	Measures enforcement of tax arrears	Меры принудительного взыскания налоговой задолженности	Soliq qarzini majburiy undirish choralari quyidagilar kiradi: soliq qarzini soliq to'lovchining bankdagi hisobvaraqlaridan so'zsiz undirish; undiruvni soliq to'lovchiga uning debitorlari o'tkazishi lozim bo'lgan summalarga qaratish; undiruvni soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratish.
Soliq organining inkasso topshiriqnomalari	Collection orders of the tax authority	Инкассовые поручения налогового органа	Soliq qarzi summasini o'tkazish to'g'risidagi inkasso topshiriqnomalari soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddati tugaganidan keyin uch ish kunidan kechiktirmay, yakka tartibdagi tadbirkorlarga esa o'ttiz kundan kechiktirmay davlat soliq xizmati organlari tomonidan taqdim etiladi.
Foyda	Profit	Прибыль	Foyda iqtisodiy kategoriya bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijasini ko'rsatadi. U tushum bilan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.
Dividendlar	Dividends	Дивиденды	Dividendlar – aksiyalar bo'yicha to'lanishi lozim

			bo'lgan daromad; yuridik shaxs tomonidan uning muassislari o'rtasida taqsimlanadigan sof foydaning va (yoki) o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foydaning bir qismi.
Ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizli daromadi	Interest income of the lessor	Процентный доход арендодателя	Ijara (lizing) to'lovi summasi bilan ijara (lizing) obyektining qiymatini qoplash summasi o'rtasidagi farq ko'rinishidagi ijara (lizing) to'lovining bir qismi.
Sof tushum	Net proceeds	Чистая выручка	Sof tushum – tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i hamda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summalarini kiritmagan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum.
Sof foyda	Net profit	Чистая прибыль	Sof foyda – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda
Tovar aylanmasi	Commodity turnover	Товарооборот	Tovar aylanmasi — muayyan davr ichida savdo faoliyatini amalga oshirish chog'ida tovarlarni sotishdan olingan (olinishi lozim bo'lgan), pulda ifodalangan mablag'lar.
Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum	Revenue from sale of goods (works, services)	Выручка от реализации товаров (работ, услуг)	Realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun olingan (olinishi lozim bo'lgan) mablag'lar summasi, shu jumladan, realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to'lash yoki qarzni uzish hisobiga tushadigan mol-mulk qiymati.
Qo'shilgan qiymat solig'i	Value-added tax	Налог на добавленную стоимость	QQS bilvosita soliqlar guruhiga mansub soliqdir. Mazkur soliqqa fiskal funktsiya ko'proq xos bo'lib, davlat byudjeti daromadini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishlarni (xizmatlarni) eksport qilish	Export of works (services)	Экспорт работ (услуг)	Ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) joyidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan chet davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish.
Kredit tashkilotlari	Credit organizations	Кредитные организации	Kredit tashkilotlari – tegishli litsenziyaga ega bo'lgan banklar, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari
Realizatsiya qilish	Sales	Реализация	Sotish, ayirboshlash, beg'araz berish maqsadida tovarlarni jo'natish (topshirish), ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish, shuningdek, garovga qo'yilgan tovarlarga bo'lgan mulk huquqini garovga qo'yuvchi tomonidan garovga oluvchiga topshirish.
Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti	Turnover in sales of goods (works, services)	Оборот по реализации товаров (работ, услуг)	Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti deyilganda mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan, tovarni va boshqa mol-mulkni jo'natish (sotish); ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shilgan hissa, mol-mulkni bepul berish tushuniladi.
Soliq solinadigan import	Taxable import	Облагаемый импорт	O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar soliq solinadigan importdir.
Tovarlarni realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sana	The date of the turnover	Дата совершения оборота	Tovarlar jo'natilgan kun, tovarlarni realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.
Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solinadigan bazasi	The tax base of value added tax	Налогооблагаемая база налога на добавленную стоимость	Soliq solinadigan baza, realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda belgilanadi.
Hisobga olinuvchi qo'shilgan qiymat solig'ining	Passed the amount of value added tax	Зачет суммы налога на добавленную стоимость	Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini aniqlashda tovarlarni (ishlarni,

summasi			xizmatlarni) oluvchi haqiqatda olingan va (yoki) soliq to'lovchi tomonidan ishlab chiqarilgan hamda o'z ehtiyojlari uchun foydalanilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) qo'shilgan qiymat solig'ining summasi.
Aksiz	Excises	Акцизы	Aksiz- bu bilvosita soliq turi hisoblanib, uning qiymati mahsulot bahosiga qo'shiladi. «Aksiz» so'zi fransuzchadan olingan bo'lib, kesish ma'nosini anglatadi.
Aksiz solig'i stavkalari	Tax rate of excise tax	Ставки акцизного налога	Aksiz solig'i stavkalari tovarning qiymatiga nisbatan foizlarda (advalor) va (yoki) naturada ifodalangan o'lchov birligiga mutlaq summada (qat'iy) belgilanadi.
Aksiz solig'i to'lovchilari	Payers of the excise tax	Плательщики акцизного налога	Aksiz solig'i to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar quyidagilardir: O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovarlarni (aksiz to'lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar; O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to'lanadigan tovarlarni import qiluvchilar; oddiy shirkat aksiz to'lanadigan tovar ishlab chiqargan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi (ishtirokchisi).
Aksiz solig'i solinadigan obyekt	Subject to excise tax	Объект обложения акцизным налогом	Quyidagi operatsiyalar aksiz solig'i solinadigan obyektidir: 1) aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan: tovarni sotish (jo'natish); garov bilan ta'minlangan

			majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni garovga qo'yuvchi tomonidan topshirish; aksiz to'lanadigan tovarlarni bepul topshirish; va boshqalar.
Aksiz solig'ining soliq solinadigan bazasi	The tax base of the excise tax	Налогооблагаемая база акцизного налога, установленных в абсолютной сумме	Aksiz solig'ining stavkalari mutlaq summada (qat'iy) belgilangan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi.
O'zbekiston Respublikasining rezidenti	Residents of the Republic of Uzbekistan.	Резидент Республики Узбекистан.	O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb quyidagilar e'tirof etiladi: O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxs; O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki joriy soliq davrida yakunlanayotgan har qanday ketma-ketlikdagi o'n ikki oylik davr ichida jami bir yuz sakson uch kun va undan ortiq muddat O'zbekiston Respublikasida turgan jismoniy shaxs.
Grant	Grant	Грант	Davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatiga qarashli tashkilotlar tomonidan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan ro'yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasiga, O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga beg'araz beriladigan mol-mulk, shuningdek, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan

			shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasiga hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga beg'araz asosda beriladigan mol-mulk.
To'lov manbai	Source of payment	Источник выплаты	To'lov manbai–soliq to'lovchiga to'lovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.
Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlari soliq solish obyekti	The object of taxation of personal income tax	Объект налогообложения НДФЛ.	Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlari soliq solish obyekti hisoblanadi: O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari; O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari.
Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlari soliq solinadigan bazasi	Taxable personal income tax base	Налогооблагаемая база НДФЛ	Soliq solinadigan baza jami daromaddan kelib chiqib, soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirilgan holda aniqlanadi.
Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar	Revenues in the form of a payment	Доходы в виде оплаты труда	Ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq ishlarni bajarayotgan jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to'lanadigan barcha to'lovlar mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar deb e'tirof etiladi.
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar	Taxpayers of the tax on property of legal entities	Налогоплательщики налога на имущество юридических лиц	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar quyidagilardir: O'zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari; O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan va O'zbekiston Respublikasi hududida o'z mulkida ko'chmas mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar O'zbekiston

			Respublikasining norezidentlaridir.
Tugallanmagan qurilish obyektlari	Construction in progress	Объекты незавершенного строительства	Tugallanmagan qurilish obyektlari jumlasiga muayyan qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, qurilish boshlanganidan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi.
Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar	Equipment not entered into force within the prescribed period	Оборудование, не введенное в действие в установленный срок	Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar jumlasiga montaj qilinishi talab etiladigan hamda rekonstruksiya va modernizatsiya qilayotgan obyektlarda loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan muddatlarga muvofiq kapital qo'yilmalar hisobiga ishga tushiriladigan asbob-uskunalar kiradi. Lekin bu muddatlar asbob-uskunalar montaj qilishga topshirilgan paytdan e'tiboran bir yildan ko'p bo'lmasligi kerak.
Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati	The average annual value of fixed assets	Среднегодовая остаточная стоимость основных средств	Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq solish obyekti	The object of taxation of property tax for individuals	Объектом налогообложения налога на имущество для физических лиц	O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar.
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq solinadigan bazasi	The tax base of land tax of legal entities	Налогооблагаемая база земельного налога юридических лиц	Yer uchastkasining soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlarining chegirib tashlangan holdagi umumiy maydoni soliq solinadigan bazadir.
Suv resurslarining	Surface water	Поверхностные	Suv resurslarining yer usti

yer usti manbalari	sources	источники водных ресурсов	manbalariga quyidagilar kiradi: daryolar, ko‘llar, suv omborlari, turli xil kanallar va hovuzlar, yer ustidagi boshqa suv havzalari hamda suv manbalari.
Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi	Simplified order of taxation	Упрощенный порядок налогообложения	Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi– soliq solishning ayrim toifadagi soliq to‘lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo‘llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.
Yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar	The payers of the single tax payment	Плательщики единого налогового платежа	Yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar quyidagilardir: 1) mikrofirmalar va kichik korxonalar; 2) xodimlarning sonidan qat’i nazar: savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari; lotereyalar tashkil qilish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar. 3) oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) — yakka tartibdagi tadbirkor.
Mikrofirmalar va kichik korxonalar	Micro-firms and small enterprises	Микро фирмы и малые предприятия	Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga xodimlarining soni bo‘yicha qonun hujjatlarida belgilangan mezonga mos keladigan yuridik shaxslar kiradi.
Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari	Trade and catering enterprises	Предприятия торговли и общественного питания	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari jumlasiga savdo faoliyati, umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat o‘tgan hisobot yili yakunlari bo‘yicha asosiy faoliyat turi bo‘lgan yuridik shaxslar kiradi.
Qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar	Agricultural producers	Сельско-хозяйственные товаропроизво-	Qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar jumlasiga yer uchastkalaridan

		дители	foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va o'zi yetishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash yoxud yer uchastkalaridan foydalangan holda faqat qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar kiradi.
Fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini to'lovchilar	Payers of insurance contributions of citizens to the Pension Fund	Плательщики страховых взносов граждан во внебюджетный Пенсионный фонд	Jismoniy shaxslar – O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek. O'zbekiston Respublikasida doimiy ravishda yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini to'lovchilardir.
Yagona ijtimoiy to'lovning va sug'urta badallarining soliq solish obyekti	The object of taxation of the unified social payment and insurance premiums	Объект налогообложения единого социального платежа и страховых взносов	Ish haqi tarzidagi daromadlar yagona ijtimoiy to'lovning va sug'urta badallarining soliq solish obyektidir.
Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilar	Payers of the mandatory contributions to the Pension Fund.	Плательщики обязательных отчислений во внебюджетный Пенсионный фонд	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilar quyidagilardir: yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari; oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) – yuridik shaxs.
Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi	The object of taxation and the tax base of mandatory deductions to the Pension Fund	Объект налогообложения и налогооблагаемая база обязательных отчислений во внебюджетный Пенсионный фонд	sof tushum byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi.
Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning	The deadline for submitting the calculation of mandatory contributions to	Срок представления расчета обязательных отчислений во внебюджетный	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati

hisob-kitobini topshirish muddati	the Pension Fund.	Пенсионный фонд.	organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi
Respublika Yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash muddatlari	The deadline for payment of mandatory contributions to the Republican Road Fund	Срок уплаты обязательных отчислений в Республиканский дорожный фонд	Respublika Yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar quyidagicha to'lanadi: Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lovchi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay; mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan – har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

6. Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2015.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: “Adolat”, 2015.
3. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. –T.: “Adolat”, 2014.
4. O'zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to'g'risida”gi qonuni. //Xalq so'zi, 1997 yil 29 avgust.
5. O'zbekiston Respublikasining “Soliq maslahati to'g'risida”gi qonuni. //Xalq so'zi, 2006 yil 21 sentyabr.
6. O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni. //Xalq so'zi, 2012 yil 2 may.
7. O'zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida”gi qonuni. //Xalq so'zi, 2012 yil 26 aprel.
8. O'zbekiston Respublikasining “Soliq va budget siyosatining 2015 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonuni. //Xalq so'zi, 2014 yil 4 dekabr.
9. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasining “Soliq va budget siyosatining 2013 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi, shuningdek soliq hisoboti davriyligi qisqartirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonuni. //Xalq so'zi, 2012 yil 25 dekabr.
10. O'zbekiston Respublikasining “Soliq va budget siyosatining 2012 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonuni. //Xalq so'zi, 2011 yil 30 dekabr.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 22 dekabr-dagi “O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi 2455-sonli Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabr-dagi “O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'r-

satkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 2270-sonli Qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabr-dagi "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 2099-sonli Qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabr-dagi "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 1887-sonli Qarori.

15. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir." //Xalq so'zi. 2016 yil 18 yanvar.

16. Karimov I.A. "2015 yilda iqtisodiyotimizni tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish - ustuvor vazifamizdir." O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2014-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2015 yil 19 yanvar.

17. Vahobov A., Jo'rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. – T.: "Sharq", 2009.

18. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. –T.: "Noshir", 2011.

19. Shamsutdinov F., Shamsutdinova Sh. Chet mamlakatlar soliq tizimi. Darslik. –T.: "Fan va texnologiya", 2011.

20. Sanaqulova B. Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. –T.: "NOSHIR", 2012.

21. Gadoyev E. i dr. Uprashchyonnaya sistema nalogoblojeniya. Uchebno-prakticheskoe posobie. –T.: "NORMA", 2011.

22. Gadoev E. i dr. Kosvennie nalogi. Uchebno-prakticheskoe posobie. –T.: "NORMA", 2011.

23. Gadoyev E. i dr. Nalog na pribil. Uchebno-prakticheskoe posobie. –T.: "NORMA", 2011.

24. Gadoyev E. i dr. Eksportnie operatsii. Uchebno-prakticheskoe

posobie. –T.: “NORMA”, 2010.

25. Malikov T., Jalilov P. Budjet-soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Akademnashr”, 2011.

26. Jo‘rayev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Norma”, 2009.

27. Haydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Akademiya”, 2007.

28. Soliq statistikasi va prognozi: O‘quv qo‘llanma/ A/Jo‘raeyev? S.Shirinov. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi; T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015.-392b.

29. Д.Г.Черника, Ю.Д.Шмелева. Налоги и налогообложение: учебник и практикум для СПО /под ред. – М. : Издательство Юрайт, 2016. – 495 с.

30. Налоговая политика государства: учебник и практикум для академического бакалавриата /под ред. Н.И.Малис. – М.: Издательство Юрайт, 2015. – 388 с.

31. Ордынская Е.В. Организация и методика проведения налоговых проверок: учебник и практикум для СПО – М.: Издательство Юрайт, 2015. – 406 с.

32. Пансков В.Г. Налоги и налогообложение. Практикум: учебное пособие для вузов. – М.: Издательство Юрайт, 2015. – 319 с.

33. Пансков В.Г. Налоги и налогообложение: учебник и практикум для прикладного бакалавриата. – М.: Издательство Юрайт, 2016. – 382 с.

34. Пансков, В. Г. Налоги и налогообложение: теория и практика. В 2 т. Т. 1: учебник и практикум для академического бакалавриата. – М.: Издательство Юрайт, 2016. – 336 с.

35. Deborah Schanz, Sebastian Schanz. Business Taxation and Financial Decisions (Germany), Springer. 2011.

36. Tagayev A., Xoshimoto F., Ro‘ziyev G‘., Xotamov K. Soliq nazorati. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2010.

37. Isroilov B., Isroilov J. Yuridik shaxslar foydasini soliqqa tortish, uning hisobi va tahlil qilish yo‘llari. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Fan va texnologiyalar”, 2010.

38. Jo‘rayev A. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari. Monografiya. –T.: “Fan” nashriyoti, 2004.

39. Amanov A. Qishloq xo‘jaligi korxonalarini soliqqa tortishning metodologik asoslari. Monografiya.-T.: “Tamaddun” nashriyoti, 2015.

40. Yuldashev A. Soliqlar va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Fan va texnologiyalar”, 2007.

41. Musagaliyev A. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. Monografiya. –T.: “El-Press”, 2009.

42. Taxation (UK), BPP Learning Media Ltd BPP House, Aldine Place 142–144 Uxbridge Road London W12 8AA, FA 2014.

43. Advanced Taxation (UK), BPP Learning Media Ltd BPP House, Aldine Place 142–144 Uxbridge Road London W12 8AA, 2014.

44. Jane Fracknall-Hughes. The Theory, Principles and Management of Taxation: An introduction, Routledge Taylor and Francis Group. 2015.

45. IMF Working Paper. Tax Revenue Forecasts in IMF-Supported Programs. Mikhail Golosov and John King. International Monetary Fund. WP/02/236.

46. Donald J., Boyd and Lucy Dadayan. Institute State tax revenue forecasting accuracy. Technical Report. Rockefeller institute of government State University of New York. September 2014. www.rockinst.org.

47. Xomma A., Tangirqulov A., Toshmatov Sh., Norqo‘ziyev I., Roziqov N. Soliq qarzi va uni undirish. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2011.

48. Toshmatov Sh., Ro‘ziyev G’, Xoshimoto F., Bobojonov D., Xotamov K. Soliq tekshiruv usullari. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2011.

49. Urmonov J. Kichik biznes subyektlarini soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. Monografiya. –T.: “El-Press”, 2011.

Ilmiy jurnallar

1. To‘rayev Sh. Xo‘jalik subyektlari soliq yuki hisobini takomillashtirish. //Bozor, pul va kredit. 2007, №2.

2. Niyazmetov I. Soliq yukini mikrodarajada baholashning obyektiv zarurati. //Bozor pul va kredit. - Toshkent, 2007. - №5.

3. Elmirzayev S., Qurbanqulova N. Korxonalarda soliqni budjetlashtirishning ahamiyatli jihatlari. //Moliya. 2013, №4.

4. Shirinov S. Soliq to‘lovchilarning daromadlari va ular asosida soliqqa tortish bazasini aniqlash usullari. //Moliya. 2013, №4.

5. Umarova N., Odilova D. Soliq tizimini taomillashtirish – iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishi. //Moliya. 2013, №4.

6. Abdullayev Z. Tijorat banklarini soliqqa tortish tendensiyalari.

//Moliya. 2013, №3.

7. Allayarov Sh., Eshonqulov Z. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari //Moliya. 2013, №2.

Davriy nashrlar

1. O‘zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2010 yil. -T.:2011. -№12.
2. O‘zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2011 yil. -T.:2012. -№9.
3. O‘zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2012 yil. -T.:2013. -№6.

Statistik nashrlar

1. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko‘rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo‘ljallangan prognozlari. Statistik to‘plam. –T.: “O‘zbekiston”, 2011.

Internet resurslar

1. <http://www.gov.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali.
2. <http://www.soliq.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi.
3. <http://www.lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
4. <http://www.mf.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
5. <http://www.ziynet.uz> - Jamoat axborot ta’lim tarmog‘i.
6. <http://www.nalog.ru> - Rossiya Federatsiyasining Federal soliq xizmati.
7. <http://www.customs.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi.
8. <http://www.stat.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.

Mundarija

	Kirish.....	3
1.	«Soliq statistikasi va prognozi» fandan amaliy mashgʻulot oʻtish sillabus strukturasi.....	4
2.	«Soliq statistikasi va prognozi» fanidan seminar mashgʻulotlarini interfaol shaklda olib borish haqida uslubiy koʻrsatmalar.....	9
3.	«Soliq statistikasi va prognozi» fanidan seminar mashgʻulotlarini mavzular yuzasidan olib borish haqida uslubiy koʻrsatmalar.....	13
3.1	“Soliq statistikasi va prognozi” fanining predmeti va bilish usullari.....	13
3.2	Soliqlarni hisoblashda qoʻllaniladigan koʻrsatkichlar va ularning iqtisodiy ahamiyati.....	19
3.3	Soliq elementlarining soliqlarni prognoziga taʼsiri.....	27
3.4	Soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlar boʻyicha tushumlarni prognoz qilish tartibi va usullari.....	37
3.5	Soliq toʻlovchilar tomonidan soliq majburiyatini bajarish tartibi va soliq qarzini majburiy undirishni tashkil etish	44
3.6	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻini prognoz qilish tartibi.....	46
3.7	Qoʻshilgan qiymat soligʻi prognozini tashkil qilish.....	57
3.8	Aktsiz soligʻini prognoz qilish tartibi.....	63
3.9	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻini prognoz qilish tartibi.....	69
3.10	Mol-mulk soligʻi va resurs toʻlovlarini prognoz qilish tartiblari.....	78
3.11	Soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibidagi soliqlarni prognoz qilish.....	85
3.12	Byudjetdan tashqari maqsadli jamgʻarmalarga majburiy toʻlovlarni prognoz qilish tartibi.....	90
4.	“Soliq statistikasi va prognozi” fanidan umumiy savollar	95
5.	Glossariy.....	98
6.	Tavsiya etiladigan adabiyotlar roʻyxati.....	115

S.Shirinov

«Soliq statistikasi va prognozi»

(amaliy mashg'ulotlar)

Uslubiy qo'llanma

Muharrir: Sh. Xudoyberdiyeva

Sahifalovchilar: Sh.Muxamedova

Bosmaxona guvohnomasi № 10-1289
Bosishga ruxsat etildi 11.09.2017. Bichimi 60x84_{1/16}
Nashr hisob tabog'i 7,6 b.t. Adadi 20
. Buyurtma № 39.

Toshkent Moliya institutida
rizografiya usulida chop etildi 100000,
Toshkent, Amir Temur shoh ko'chasi 60^a uy.